

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

HALIMOV TEMUR ALISHEROVICH

**“OLIIY TA‘LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH
MASALALARI”**

5230600 – “Moliya” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun
yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

Fakultet dekani

_____ dots. D.R.Rustamov

“ ____ ” _____ 2019 y.

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

“Moliya” kafedrasi mudiri

_____ prof. T.S. Malikov

“ ____ ” _____ 2019 y.

Bitiruvchi: 5230600 – “Moliya” ta‘lim
yo‘nalishi 4-kurs talabasi

T.A. Halimov _____

Ilmiy rahbar: _____ k.o'q. Beknazarov Z.

TOSHKENT – 2019

MUNDAREJA

KIRISH.....	3
I BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI VA NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	7
1.1. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ijtimoiy- iqtisodiy ahamiyati va zarurligi.....	7
1.2. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning nazariy- huquqiy asoslari.....	17
1.3. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish usullari.....	23
1-bob bo'yicha xulosa.....	27
II BOB. MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	29
2.1. Oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	29
2.2. Oliy ta'lim muassasalarini byudjetdan moliyalashtirish amaliyotining tahlili	37
2-bob bo'yicha xulosa.....	47
III BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	48
3.1. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	48
3.2. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalaridan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari.....	54
3-bob bo'yicha xulosa.....	57
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	63

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish sohalarini rivojlantirishga katta etibor bermoqda. Chunki ushbu sohalarni rivojlantirmay turib, oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarga erishishni tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar ta'lim olishda bir xil huquqlarga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimiga alohida hukumat darajasida e'tibor qaratilib, uning rivoji yo'lida davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan katta mablag' ajratilib, keng miqyosli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizni tashkil etmoqda¹. Bu YuNESKOning mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investitsiyalar miqdori bo'yicha tegishli tavsiyalaridan, ya'ni 6-7 foizdan qariyb 2 barobar ko'pdir².

O'zbekiston Respublikasining rivojlanishi va kuchli davlat sifatida shakllanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Bunga bevosita iqtisodiyotning qudratli moddiy-texnika bazasini yaratish bilan bir qatorda, ilmiy va ma'naviy salohiyatini yaratish ham kiradi. Ushbu maqsadga ta'lim tizimini isloh qilmasdan, uni yoshlarning qobiliyatini yuzaga chiqarishga yo'naltirmasdan, ijtimoiy ehtiyojlari qondirilmasdan, sohaga mo'ljallangan moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanmasdan turib erishib bo'lmaydi. Shuningdek, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining tarkibiy qismi hisoblangan xalq ta'limi tizimini modernizatsiyalash jarayoni ushbu sohaga yo'naltiriladigan moliyaviy resurslardan yanada samaraliroq foydalanishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida barcha fuqarolar jinsi,

¹ www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti malumotlari.

² www.mf.uz Moliya vazirligi sayti malumotlari.

irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar ta'lim olishda bir xil huquqlarga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimiga alohida hukumat darajasida e'tibor qaratilib, uning rivoji yo'lida davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan katta mablag' ajratilib, keng miqyosli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'tgan 2018-yilda hozirgi davrning asosiy vazifalaridan biri – odamlarimizning munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlash va rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o'rin egallash bo'yicha avvalo muhim islohotlarni amalga oshirish yo'lida katta qadam bo'ldi, deb aytishga to'liq asoslarimiz bor.

So'nggi paytlarda yurtimizda tub o'zgarishlar ro'y berdi. Eng muhimi, muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek noma'qul ish uslubi tanqidiy qayta ko'rib chiqildi.

Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi. Ayni shu asosda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2017 yilda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari 5,5 foizni tashkil etdi, eksport hajmi qariyb 15 foizga ko'paydi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini 854 million dollarga yetdi³.

Bugungi kunda davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ta'lim xarajatlari salmog'i jihatdan birinchi o'rinda turishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish hamda moliyalashtirish tartibini takomillashtirish zaruriyati, qolaversa mazkur sohani moliyalashtirish manbalarini qayta ko'rib chiqishning dolzarbligi, shuningdek 2007-yil 25 fevraldan "Ta'lim tizimi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga muvofiq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini yanada

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, <http://uza.uz/-28-12-2018-yil,5-bet>.

takomillashtirish zarurligi tanlangan bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'yekti O'zbekiston Respublikasida hozirda faoliyat ko'rsatuvchi barcha ta'lim tizimi muassasalari mavzuning ob'yekti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti sifatida yurtimizdagi ta'lim muassasalarini davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilayotgan ta'lim xarajatlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari ushbu bitiruv malakaviy ishining maqsadi mamlakatimizda tajribali kadrlarni tayyorlashni yanada oshirishda oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi. Xususan, ta'lim tizimini moliyalashtirilishni tashkil etishni takomillashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

- oliy ta'lim muassasalarini byudjetdan moliyalashtirish amaliyotini yoritish;

- oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishda xorijiy mamlakatlar tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish;

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarini o'rganish bo'yicha ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar berishdan iborat;

- ijtimoiy sohalar tizimida oliy ta'lim muassasalarining tutgan o'rni va rivojlanish xususiyatlarini ochib berish;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyaviy ta'minotining zarurligi va manbalarini o'rganish;

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati bitiruv malakaviy ishining natijalari mavjud oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ustivor yo'nalishlarini bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish hamda milliy o'ziga xos bo'lgan ta'lim muassasalarini

moliyalashtirish mexanizmini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy ishda bayon qilingan fikr-mulohaza, xulosa va amaliy tavsiyalardan iqtisodiy oliy o'quv yurtlarida moliya, xususan davlat byudjeti bo'yicha fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining takibiy tuzulishi bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning nazariy asoslari yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirishning amaliyoti yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish masalalari yoritib berilgan.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining umumiy hajmi 69 betdan iborat bo'lib, 7 ta jadval va 13 ta rasmdan iborat.

I BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI VA NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va zarurligi

Azaldan ma'lumki, xalqimiz orasida dono, o'z aqli va zakovati bilan dunyoni lol qoldirib kelgan bobokalonlarimiz Amir Temur, Imom Buxoriy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi bobolarimiz insoniyatning ma'naviy dunyosiga ulkan hissa qo'shganlar. Al-Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida Ideal shahar davlati obrazini yaratib, jamiyatning har bir fuqarosi fozil kishi bo'lishi lozimligi, ya'ni sog'lom bo'lishi, yuksak darajada iqtidorli, xotirasi kuchli, aqli ziyrak, ilmparvar bo'lishi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridanoq ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelmoqda.

Negaki, davlat siyosatining ustivor sohasi zahirida komil inson tarbiyasi yotadi. "Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz"⁴-deb ta'kidlagan edilar mustaqilligimiz asoschisi, mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A. Karimov. Fozil inson o'z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, lozim bo'lganda Vatani uchun jon fido qiladi.

Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan serma'no fikrlari ham ta'lim-tarbiya masalasiga qanchalik jiddiy yondoshishni talab qiladi.

⁴ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir, Xalq so'zi gazetasi, 2005 yil 26 yanvar, 1-5 b.

Dunyoning bugungi rivoji shunday bir mavqedaki, unda hal qiluvchi omil harbiy qudratda emas, balki intellektual salohiyatda, fikrda, aqlda, ilg'or texnologiyalardadir. Mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov tomonidan lutf etilgan: "Kuch bilim va tafakkurda" degan hikmat bugun va ertangi kun uchun aytilgandir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida davlatimizda ta'limning ushbu shakllari belgilangan (1-rasmga qarang):

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim
- oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish


Bizning tadqiqot ob'ektimiz bo'lgan oliy ta'lim muassasalari davlat ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda mamlakatning ijtimoiy soha, xususan, maorif sohasida mavjud muammolarni bartaraf etishda hukumat tomonidan qator islohotlar o'tkaziladi. Vatanimiz iqtisodchi olimlari A.O'lmasov, M. Sharifxo'jaev iqtisodiyot nazariyasiga oid asarlarida davlatning iqtisodiyotga ijtimoiy siyosati orqali ta'siri to'g'risida ta'kidlab o'tganlar.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiysi bu, shaxs salohiyatini ko'tarish hisoblanadi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya isloh qilishning, takomillashtirishning, eng avvalo huquqiy asoslari yaratildi. 1992- yil 8-dekabrda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi qabul qilinib, har bir

fuqoroning bepul umumiy ta'lim olish huquqi, ta'limning davlat nazoratida ekanligi qonuniy kafolatlandi.

Ta'lim tizimi holatiga nazar tashlasak, O'zbekistonda ta'lim saviyasi yetarlicha yuqori. Har ming ishlovchining 948 tasi ma'lumotga ega, jumladan, to'liqsiz o'rta-127, o'rta-480, o'rta maxsus-199, oliy va tugallanmagan oliy-142 nafarni tashkil etadi. Aholining 99% dan kupi savodli hisoblanadi⁵.

dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasining ta'lim shakllari⁶

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligimiz asoschisi, mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasidagi "O'zbekistonning o'tgan ko'p yillardagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yakunlarini muhokama qilish va yillar uchun taraqqiyot yo'limizning eng muhim ustivor yo'nalishlarini aniqlab olishdan iborat" nomli ma'ruzasida ta'kidlagan eng muhim jihatlardan biri – yosh mutaxassis va kadrlarni tayyorlash, ularga zamonaviy bilimlar berish, ularning o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun barcha

⁵ www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi rasmiy saytidan olindi.

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

shart-sharoitlarni yaratib berishga jiddiy e'tibor qaratilishidir. Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining hayot darajasi va sifatini yanada oshirish bilan bog'liq masalalar bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lib qoladi. 2018-yilda ijtimoiy sohaga davlat byudjeti jami xarajatlarining 58,2 foizi yoki o'tgan yilga nisbatan ko'proq mablag' ajratiladi. Jumladan, ta'lim-tarbiya sohasiga davlat byudjeti xarajatlarining 33,7 foizi, sog'liqni saqlash tizimiga 14 foizi yo'naltiriladi. Ta'lim-tarbiya sohasini ta'minlash va rivojlantirish sarf-xarajatlari o'tgan yilga qaraganda 16,3 foizga, sog'liqni saqlash tizimida 16 foizga ko'payadi⁷.

O'zbekiston aholisining 60 foizdan ko'prog'ini bolalar va o'smirlar tashkil qiladi. Tabiiyki, ularni o'qitish, tarbiyalash, kasbga yo'naltirish va mutaxassis kadr qilib tayyorlash masalalari zamonning dolzarb masalasi bo'lmog'i zarur.

Ko'pgina boshqa davlatlardan farqli o'laroq, mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishning barcha yuki davlat zimmasidadir. Dasturni amalga oshirishda bosh islohotchi sifatida davlatimizning o'zi katta mas'uliyatni o'z zimmasiga olyapti. "Farzandlari kelajagini o'ylab yashash – o'zbek millatiga xos fazilat", - deb ta'kidlaganlar mustaqilligimiz asoschisi, mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A.Karimov o'z nutqlarining birida.

Ma'lumki, ta'lim tizimini isloh qilish ishlari 1997-yilda boshlangan edi. O'tish davrdagi yangi sharoitlarni hisobga olgan holda ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirish maqsadida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi. Bu davrga kelib O'zbekiston milliy ta'lim tizimida erishilgan yutuqlar bilan birgalikda, bir qator muammolar ham mavjud edi. Dasturning asosiy maqsad va vazifalari ana shu muammolarni hal qilishga qaratildi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilangan islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- maktabgacha va umumiy ta'limni takomillashtirish;

⁷ <https://kun.uz/news/2018/01/01/2018-yilgi-davlat-byudjeti-raqamlarda-manbasi-asosida-tuzildi>.

- o'rta maxsus kasbiy ta'limni oqilona tashkil etish;
- ta'limni boshqarish va moliyalashtirishni yaxshilash;
- kadrlar tayyorlashning samarali tizimini yaratish.

Ta'lim – bu jamiyatning strategik resursi va davlat hamda jamiyat qurilishida muhim ustuvorlik ekanligini hisobga olib, butun ta'lim tizimining har bir bosqichini boshqarishda davlat yetakchi rol o'ynaydi.

Ta'lim tizimi ustidan davlat rahbarligi, avvalo, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim tizimi maqsadlarini aniqlashda;
- uning rivojlanishini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslarni ishlab chiqishda;
- resurslar bilan ta'minlash va moliyalashtirishning boshqa manbalarini aniqlashda;
- qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayoni ustidan monitoringni amalga oshirishda.

Davlat ta'lim xizmatlarini taqdim etadi, ularni moliyalashtiradi va tartibga soladi, bu xizmatlar to'g'risida ma'lumotlar to'playdi va chop etadi. Ta'lim sohasini davlat tomonidan tartibga solishning umumiy maqsadi uni bozor iqtisodiyoti va XXI asrning demokratik jamiyat qurish talablariga ko'proq javob beruvchi tizimga aylantirishdan iborat. Tor ma'noda bu maqsad – yoshlarning barcha toifalariga maktab ta'limi xizmatlaridan foydalanishdagi teng qulaylikni, o'qituvchilar malakasining yuqori darajasini va ta'limning yuqori sifatini ta'minlashdir.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da nafaqat o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, balki bazaviy hisoblanmish ta'limi tizimi, ya'ni boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va uni jahon standartlari talablariga javob beradigan darajaga etkazish, boshlang'ich ta'limda ilg'or chet el texnologiyalarini qo'llash, uning moddiy-texnik bazasini yaxshilash hamda o'qituvchi xodimlarning moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish kabi vazifalar ham belgilangan.

Mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta'lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta'lim majmui hisoblanadi. Bunda ta'lim tizimining har bir bo'g'ini alohida o'rin va mas'uliyatga egadir. Dasturni to'liq amalga oshirish, qo'yilgan vazifalarga erishish ana shu bo'g'inlarning holati va rivojlanish darajasiga, ularning o'zaro uyg'unligiga bog'liqdir. Yana shuni takidlash joizki aholi bandligini ta'minlash masalasi ham eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi.

Yoshlarimiz, farzandlarimizning, ayniqsa, qishloq joylarda bandlik muammosi biz uchun eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolayotganini nazarda tutgan holda, tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlariga bu boradagi ishlar uchun ular shaxsan javobgar ekanini yana bir bor ta'kidlash lozim. Shuningdek jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayni paytda global iqtisodiyotda kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mamlakatning raqobatdoshlik darajasiga ta'sir ko'rsatishi, katta hajmda axborot to'plash va uni umumlashtirish imkonini berishi, boshqarishni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochib berishini unutmashimiz zarur.

Davlat ta'lim xizmatlarini taqdim etadi, ularni moliyalashtiradi va tartibga soladi, bu xizmatlar to'g'risida ma'lumotlar to'playdi va chop etadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda jahon miqyosida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning taxminan 5,5 foizi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga to'g'ri kelmoqda. Nufuzli xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, 2020 yilda bu ko'rsatkich 9 foizdan oshadi. Bu esa talim tizimini yanada takomillashtirishga imkon yaratadi

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq, ta'lim bir necha bosqichlarni qamrab oluvchi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi:

- maktabgacha ta'lim - 6-7 yoshgacha davlat va nodavlat maktabgacha bolalar muassasalarida amalga oshiriladi;

- umumiy o'rta (maktab) ta'lim - 11 yillik muddatdagi majburiy ta'lim hisoblanadi;

- oliy ta'lim ikki bosqichni qamrab oladi: bakalavriat i magistratura;

- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

- malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash;

-maktabdan tashqari ta'lim.

Dasturni amalga oshirishning birinchi bosqichi – 1997-2001 yillar, ikkinchi bosqich – 2002-2005 yillar, uchinchi bosqich – 2006 va undan keyingi yillarni o'z ichiga oladi. Bu hujjatlarga muvofiq, mamlakatda 12 yillik bepul majburiy ta'limga o'tish amalga oshirilmoqda, o'rta maxsus kasbiy ta'limning yangi turi shakllanmoqda, o'quv dasturlarining xilma-xilligi va ta'lim tizimini ko'ptarmoqli moliyalashtirish ta'minlanmoqda. 2004-yilda umumiy ta'limga berilgan ustivor maqomni tasdiqlovchi va maktab ta'limi rivojlanishining Davlat umummilliy Dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlab bergan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, mamlakatda maktab yoshiga yetgan barcha bolalar (nogironlar, rivojlanishi sust bo'lgan bolalar) turli xil ta'lim muassasalarida (nogironlar, rivojlanishi sust bo'lgan bolalar va shu kabilar uchun maxsus maktablarni ham kiritgan holda) ta'lim olishga majburlar.

O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 9-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.⁸

Qonunning 31-moddasida davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

Iqtisodiyotning barqaror o'sishi bilan bir qatorda Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi, Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish Davlat umummilliy Dasturi, boshqa ijtimoiy dasturlar, hukumatning boshqa qarorlariga muvofiq amalga oshirilgan maqsadli chora-tadbirlar majmui ijtimoiy sohadagi ijobiy tendensiyalar uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning ikkinchi bosqichi vazifalariga muvofiq oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi o'quv muassasalari tuzilmasini, ularning moddiy-texnika bazasini zamonaviylashtirish, o'qitish jarayonini takomillashtirish va resurs ta'minoti bo'yicha ishlar davom ettirildi. Shunisi ayonki, mamlakatimiz iqtisodiyotining taraqqiyoti nafaqat tayyorlanayotgan yuqori malakali kadrlar soniga, balki ularning iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida faoliyat ko'rsatishi uchun mutaxassislik hamda yo'nalish jihatidan tarkibining muvofiqligiga ham bog'liqdir. Zero, bugungi kunda mamlakatimizda qurilish, engil sanoat, xizmat ko'rsatish va servis, axborot va aloqa, neft-gaz va kimyo, go'sht-sut, yog'-moy va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining ustuvor ravishda rivojlanishi uchun eng avvalo mazkur sohalar bo'yicha zamonaviy bilimlarga, ilg'or texnika va texnologiyalar bilan «tillasha» oladigan mutaxassis kadrlarni etkazib berish zarur⁹.

⁸ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 464-son Qonuni 29.08.1997 y.

⁹ Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2016, 36-bet

Ta'lim tizimini moliyaviy-iqtisodiy boshqarish tizimining takomillashishi kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish borasida olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar bilan yonma-yon jarayon bo'lib, mazkur jarayonni jadallashtirish avvalo, moliya-byudjet, investitsiya, ta'lim, xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatlariga bog'lik.

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish va uning iqtisodiy asoslarini kengaytirishda moliyalashtirishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish talab qilinadi.

Jamiyatimiz hayotini butunlay o'zgartirgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish va boshqa umummilliy dasturlarimizni amalga oshirish natijasida mamlakatimizda o'n ikki yillik majburiy va bepul, umumiy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga, ikki bosqichli oliy ta'lim tizimiga asos solinib, zamonaviy yangi avlod kadrlarini tarbiyalash uchun mustahkam poydevor yaratilgani O'zbekistonimizning jahon maydonida raqobatdoshligini ta'minlashning ishonchli zamini bo'lib xizmat qilayotganini teran ifoda etish biz uchun o'ta muhim bo'lgan sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va san'at, sport sohalarini rivojlantirish, keksa avlod vakillari, xotin-qizlar va yoshlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish uchun amalga oshirilayotgan ulkan ishlarga alohida ahamiyat berish lozim. Jumladan, davlat byudjet imizning sotsial sohalarga yo'naltirilgan yillik xarajatlari izchil oshib borayotganini, birgina 2018-yilda ushbu raqam qariyib 60 foizdan ortganini bu boradagi keng ko'lamli islohotlarning mantiqiy natijasi sifatida ko'rsatish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimi mustaqillik yillarida ma'lum o'zgarishlarni boshidan kechirdi, lekin davlat resurslaridan foydalanishdagi o'ziga xos xususiyatlarni saqlab qoldi, unda asosiy moliyalashtirish manbai – davlat byudjeti bo'lib, davlat byudjetidan ta'lim muassasalarini saqlashga ajratmalar esa smeta asosida ajratiladi.

Davlat byudjetidan moliyalashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mablag'larni sarflashda tejamkorlik tartibiga rioya qilish, pul sarflarining eng kam bo'lishiga intilish;

- byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, ya'ni faqat aniqlangan va oldindan asoslangan maqsadlarga ularni smeta moddalari o'rtasida qayta taqsimlashsiz ishlatish;

- davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy faoliyati ustidan yuqori tashkilotlar hamda moliya organlari tomonidan muntazam nazoratni olib borish.

Davlat byudjetidan oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish islohotlargacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy modelga to'g'ri keladi – davlat o'z byudjetida mamlakat milliy daromadining sezilarli qismini to'plagan holda, keng rivojlangan ta'lim muassasalari tarmog'ini ularning asosiy ehtiyojlarini qondiradigan darajada saqlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

1999-yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 414-sonli Qarori chiqdi, bu Qaror ularga o'z ihtiyorlaridagi byudjet mablag'larini ishlatishda ko'proq huquqlar berdi va qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Oliy ta'lim muassasalari asosan, tushumlarining asosiy manbasi soliq tushumlari va yuqori byudjetdan ajratiladigan turli dotasiyalar, subsidiyalar va subvensiyalar bo'lgan mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladi. Bundan tashqari ular maktabning byudjetdan tashqari mablag'larini shakllantiruvchi qo'shimcha daromadlarga ega bo'lishi ham mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida so'nggi yillarda olib borilgan islohotlar, qolaversa, Prezidentimiz tomonidan tavsiya etilib, xalqimiz to'la qo'llab-quvvatlagan ta'lim tizimining joriy etilishi bilan bog'liq moddiy-texnik baza, zamonaviy sinfxona va ustaxonalar tashkil etish, darslik va qo'llanmalar yaratish, kadrlar bilan ta'minlash borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Oliy ta'lim muassasalarini voliyalashtirish manbalari:

- mahalliy byudjetlarning soliqlar va yig'imlar bo'yicha prognoz qilingan tushumlaridan ortiq qismini jalb qilishdan mablag'lar;

- xalqaro moliya tashkilotlari va institutlarining grantlari va kreditlari;
- O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik yordamlari;
- qonun bilan ta'qiqlanmagan boshqa tushumlar.

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish uchun javobgarlikni taqsimlash ta'lim berish va uni boshqarish uchun vakolatlar va javobgarlikni taqsimlashga muvofiq keladi.

Shunday qilib, maxsus davlat nobyudjet maktab ta'limi Jamg'armasini yaratish maktablarning moddiy-texnik asosini mustahkamlash va kengaytirish masalalarini markazlashtirilgan tartibda hal etishga imkon beradi.

Qolaversa bugungi kunda oldimizda quyidagi bir qator vazifalar turibdi:

- oliy ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish va mukammal ta'mirlash, shu jumladan, zarur hollarda o'quv korpuslarini o'quv ustaxonalari va laboratoriyalar bilan kengaytirish, sport zallari va maydonchalarini hamda boshqa infratuzilma ob'ektlarini barpo etish bo'yicha ishlarni moliyalashtirish;

- zamonaviy talablarni hisobga olgan holda, tasdiqlangan normativlardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarini eng yangi o'quv-laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter texnikasi hamda axborot-kommunikatsiya ta'lim texnologiyalarining boshqa elementlari bilan, shuningdek o'quv mebeli va asbob-anjomlari bilan tizimli qayta jihozlash hamda to'liq jihozlashni moliyalashtirish;

1.2. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning nazariy-huquqiy asoslari

Respublikamiz mustaqillikka erishishi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, bu sohada mavjud muammolarni hal etish va rivojlantirish, zamon talablariga mos tarzda yoshlarga bilim va tarbiya berish, shu bilan birga tizimda aniq qonuniy-me'yoriy huquqni yaratishga zamin yaratdi. 1992-yil 8-dekabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida birinchi huquqiy asos sifatida barcha teng ravishda ta'lim olish huquqiga ega ekanligi qayd etildi. Shu bilan birga davlat tomonidan majburiy 12 yillik ta'lim bepul ekanligi kafolatlab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni mamlakatimiz fuqarolariga ta'lim-tarbiya berishning huquqiy asosini belgilab berdi va har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqi ta'minlanishiga zamin yaratdi. Qonunning 3-moddasiga ko'ra ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor deb e'lon qilindi. Ushbu qonunda ta'lim tizimidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari bo'lib quyidagilar belgilandi:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limining uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy, o'rta, shuningdek o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Shuningdek, ushbu qonunda ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilishga katta e'tibor qaratilgani nihoyatda ahamiyatlidir. Qonunning 22-moddasida yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti asosida qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi deb ta'kidlanadi.

Oliy ta'limni muassasalarini moliyalashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, Qonunning 31-moddasida quyidagicha ta'kidlanadi¹⁰: "Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi".

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 464-son Qonuni 29.08.1997.

Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin. Mamlakatimizda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun asosida O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" tasdiqlandi. Ushbu dastur milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan bo'lib, yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'la bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarni ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Oliy ta'limni muassasalarini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning maqsadi etib belgilandi.

Kadrlar tayyorlash tizimidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda har bir fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, o'z ijodiy qobiliyatini namoyish etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.


Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida ta'minlanadi va 7 ta turni o'z ichiga oladi (2-rasm).

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- maktabgacha va umumiy o`rta ta`limni takomillashtirish;
- o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini optimal tashkil etish;
- ta`limni boshqarish va moliyalashtirishni takomillashtirish;
- kadrlar tayyorlashning samarali tizimini yaratish.

Ta`lim tizimini isloh qilish maqsadida 1997-yil 6-oktabrdagi “Ta`lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish” PF-1869-son farmonining birinchi bandi bilan “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ni hayotimizga samarali tadbiiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo`nalishi etib belgilandi.

Shu bilan birga mamlakatimizda ta`lim jarayoning har bir bosqichini davlatimiz siyosatidan kelib chiqqan holda amalga oshirish uchun bir qancha huquqiy-me`yoriy hujjatlar yaratildi.



2-rasm. O`zbekiston Respublikasida uzluksiz ta`lim turlari¹¹

O`zbekiston Respublikasida oliy ta`limni muassasalarining mol-mulkini va moliyaviy resurslarini shakllantirish manbalari hisoblanadi:

¹¹O`zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

- byudjet mablag`lari va byudjetdan tashqari mablag`lar;
- boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy ehsonlari hamda maqsadli badallari;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Byudjet tashkilotlarini mablag` bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, byudjet mablag`laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi "Byudjet tashkilotlarini mablag` bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qarori tasdiqlandi. Qarorga muvofiq byudjet tashkilotlarini mablag` bilan ta'minlash normativlar bo'yicha (faoliyat turiga ko'ra) xarajatlarning quyidagi guruhlarini bir satrda mablag` bilan ta'minlash usulida amalga oshirilishi belgilab qo'yildi:

1) ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (bolali oilalarga nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar);

2) ish haqiga qo'shimchalar;

3) kapital qo'yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro'yhatlarga muvofiq);

4) boshqa xarajatlar.

Shu bilan birga byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlari manbalari belgilandi:

- faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlari;

- byudjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan olingan daromadlari;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga homiylik (beg'araz) yordami berilishidan qo'shimcha daromadlar.

Ushbu manbalardan qo'shimcha daromad olayotgan byudjet tashkilotlari 2000-yil 1-yanvardan boshlab 2019-yil 1-yanvargacha Davlat byudjetiga undiriladigan soliqlar va yig'imlarning barcha turlaridan ozod qilindi hamda

bo`shab qolgan mablag`lar moddiy-texnika va ijtimoiy bazani mustahkamlashga, shuningdek, ularning xodimlarini moddiy rag`batlantirishga maqsadli yo`naltirilishi belgilandi. Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg`armasi mablag`lari, avvalo, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo`yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to`lashga, byudjet tashkilotining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash tadbirlariga, ijtimoiy rivojlantirish va xodimlarni moddiy rag`batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

Mamlakatimiz oliy ta`limni tizimidagi o`qituvchilar mehnatiga haq to`lash tizimini yanada takomillashtirish, iste`dodli, o`z kasbiga sodiq Oliy ta`limni muassasalari xodimlarini moddiy rag`batlantirish va ular mehnatiga haq to`lashning sifat jihatidan yangi mexanzimini joriy etish, o`sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish jarayonida ularning ma'suliyatini yanada kuchaytirish va shaxsiy hissasini oshirib borilmoqda.

Oliy ta`limni muassasalarini O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 21-iyuldagi "Mehnatga haq to`lashning yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to`g`risida"gi qarori bilan belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdori Mehnatga haq to`lashning yagona tarif setkasiga asos qilib olindi va 2009-yil 1-avgustdan boshlab kuchga kirdi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 6-iyuldagi 200-son qaroriga 1-ilova "O`zbekiston Respublikasida o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi to`g`risida"gi Nizom bilan mamlakatimizda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyati tartibga solinadi. Nizomga asosan davlat o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalari faoliyatini moliyalashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda:

- O`zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag`lari;
- tasarrufida o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalari mavjud bo`lgan vazirliklar, idoralar va tashkilotlarning mablag`lari;
- pullik ta`lim xizmatlari ko`rsatishdan, ilmiy-pedagogik ishlab chiqarish faoliyatidan va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarining

ustavida qayd etilgan vazifalariga muvofiq bo`lgan va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning boshqa turlaridan olingan daromadlar;

- xayriya ehsonlari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi¹².

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, pedagog xodimlarning malakasini oshirish, bolalar intellektual salohiyati va aqliy hamda jismoniy tayyorgarligini oshirib borish, ularni maktabga tayyorlash, bunda yangi texnologiyalar va zamonaviy ta'lim dasturlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida dastur qabul qilindi.

Ta'lim tizimini izchil rivojlantirish, uni zamon talablari asosida yangilab borish, bolalar va yoshlar bilimni boyitib borishda, albatta, kitoblar, o`quv-metodik qo`llanmalar zarur. Bugungi kunda darsliklar to`plami uchun ijara to`lovi miqdori respublika bo`yicha yagona bo`lib, u Oliy ta`limi vazirligi tomonidan barcha Oliy ta'lim muassasalariga yetkaziladi, shuningdek ommaviy axborot vositalari orqali e`lon qilinadi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini samarali olib boorish uchun yetarlicha huquqiy asos yaratilganligi yurtimizda ta'lim sohasiga bo`lgan e`tiborning qanchalik yuqori ekanligidan dalolat beradi.

1.3. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish usullari

Bugungi kunda ta'lim sohasini rivojlantirishning zamonaviy xususiyatlari, ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, ajratilgan mablag'lardan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi yangi va ilg'or usullardan foydalanishni taqazo etadi. Ushbu holat davlat tomonidan ta'lim

¹²O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 6-iyuldagi 200-son qaroriga 1-ilova "O`zbekiston Respublikasida o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida"gi Nizom VI bo`lim 26-bandi

soxasida olib borilayotgan siyosatning birlamchi vazifalariga kiradi va u quyidagilarni ta'minlashga yo'naltiriladi:

- ta'lim olish imkoniyati;

- ta'lim sifati va natijalari;

- ehtiyojlari bir xil o'quvchilarni mablag'lar bilan bir xil ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muxtoj o'quvchilarni esa ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mablag'lar bilan ta'minlashni nazarda tutuvchi tenglik;

- ichki va tashqi samaradorlik.

Har bir mamlakat ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari, byudjet tizimining xususiyatlari va ta'lim tizimini boshqarish tamoyillaridan kelib chiqib ta'lim soxasini moliyalashtirishning u yoki bu usullarini qo'llaydi. Shu bilan birga, aksariyat ta'lim tizimlarida ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning bir nechta keng qo'llaniladigan usullarini ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega):

- o'tgan davr ko'rsatkichlari asosida moliyalashtirish—bu usul tashkilot byudjetini o'tgan davr xarajatlari darajasida (inflyatsiyani hisobga olgan holda) mazkur muassasa moliyalashtirilayotgan tegishli byudjet imkoniyatlaridan kelib chiqib aniqlashni ko'zda tutadi;


- alohida shartnomalar asosida moliyalashtirish - xar bir ta'lim muassasasi belgilangan mezonlarga muvofiq zarur resurslarga bo'lgan o'z ehtiyojlarini asoslab berishi lozim. Ushbu resurslarga bergan buyurtmasi talablarga mos kelgandagina ega bo'ladi;

- xarajatlar asosida moliyalashtirish - faoliyatini bajarish uchun tashkilot tomonidan sarflangan xarajatlarni qoplash, ya'ni binolar, inshootlarni saqlash, ularni joriy ta'mirlash, ishchi-xodimlar ish xaqini to'lash va x.k. (bunday usul «xarajatli» hisoblanib, xozirgi davrga qadar O'zbekiston ta'lim muassasalarini byudjet tomonidan moliyalashtirish amaliyotida ustuvorlik qilmoqda);

- formula asosida moliyalashtirish — bu usul moliyaviy mablag'larni belgilangan me'yorlar tizimini xar bir ta'lim muassasasiga ma'lum tartibda qo'llash va oshkora asosida taksimlash imkonini beradi.

- Oliy ta'limni muassasalarining xarajatlar smetasi asosiy moliyaviy hujjat

hisoblanadi. Unga muvofiq, muassasaning tegishli ijtimoiy (masalan, ta'lim) xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash uchun mablag'lar ajratiladi. Xalq ta'limi, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarining tarmoqlarga bo'lingan tizimi byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibiga muvofiq respublika, viloyat, tuman (shahar) mahalliy byudjetlari mablag'lari hisobidan (idoraviy va hududiy bo'ysinuviga bog'liq holda) moliyalashtiriladi (4-rasm).



3-rasm. Byudjet tashkilotlarining harjatlari smetasi turlari¹³

Bunda yuridik maqomga ega tashkilotlar o'z moliyaviy rejalarini mustaqil ravishda xarajatlar smetasi ko'rinishida ishlab chiqadilar va amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlaydilar. Moliyalashtirish formulasi har

¹³O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 414-son qarori

bir tashkilotda ajratilayotgan resurslar miqdorini aniqlashda hisobga olinishi lozim bo'lgan omillarni aniqlash imkonini yaratadi.

Oxirgi o'n yilliklarda formula asosida moliyalashtirishga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda ushbu usul ko'pgina mamlakatlarda resurslarni adolatli taqsimlash maqsadida ta'lim muassasalari uchun u yoki bu darajada qo'llaniladi. Moliyalashtirish formulasini davlat va ta'lim tashkiloti o'rtasidagi o'ziga xos kelishuv sifatida ko'rish mumkinki, unga ko'ra, ta'lim tashkilotlari zarur ta'lim natijalarini ta'minlash va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish evaziga kelishilgan miqdordagi moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanadilar. Byudjet mablag'larini ta'lim sohasiga taqsimlashda jon boshiga moliyalashtirish formulalarini qo'llash mablag'larni bir tekis taqsimlash, ulardan oqilona, samarali, oshkora foydalanish va oldiinan bashorat qilish kabi afzalliklarga ega.

Ta'lim muassasalarini jon boshiga moliyalashtirish bir o'quvchi (talaba, tarbiyalanuvchi) uchun o'rnatilgan xarajatlar me'yorlari, o'quvchilar soni va ta'lim muassasalari xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus koeffitsientlarga asoslangan moliyalashtirish tizimi.

Xususan, Oliy ta'limi tizimida hozirgi davrda jon boshiga moliyalashtirish turli xil variantlarda umumiy ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda (asosan, o'rta ta'lim muassasalarida). Ko'pgina davlatlarda, ayniqsa, MDX mamlakatlarida (Armaniston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston) mablag'lar bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlari me'yoridan kelib chiqqan holda beriladi. Moliyalashtirish formulasining asosini o'zgaruvchi ko'rsatkichlar tashkil etadi va ular yordamida quyidagi mablag'lar hisoblanadi:

- o'quvchilarning bazaviy ta'limi uchun mablag'lar, bunda moliyalashtirish formulasi o'z ichiga turli sinflar va turli tipdagi maktablarda ta'lim qiymatini aks ettiruvchi turli koeffitsientlarni olishi mumkin;

- alohida maktablarda ta'lim olish yoki ayrim fanlar chuqur o'rgatiladigan maktablar xarajatlarini aniqlash;

- rivojlanishda nuqsoni bor, nogironlik, tilni yaxshi bilmaydigan, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari og'ir o'quvchilarning qo'shimcha extiyojlari uchun mablag'lar

hajmini aniqlash;

- maktabning xajmi yoki joylashuvi (alohida ajralib qolgan maktablar yoki aholi punktlari, maktablarning o'quvchilar bilan ta'minlangan, maktab xonalari va xovlilari, ularning jismoniy tavsiflari va xokazo) bog'liq tavsiflarni moliyalashtirish.

Yuqorida sanab o'tilgan o'zgaruvchi ko'rsatkichlarning moliyalashtirish formulasiga kiritilishi resurslarni barcha o'quvchilar o'rtasida teng taqsimlash imkonini beradi. Ammo resurslarni jon boshiga moliyalashtirish asosida taqsimlashning samaradorligini ta'minlash uchun ta'limning belgilangan darajasini ta'minlash, resurslar miqdori va narxidan kelib chiqqan holda ularning miqdoriy tahlilini olib borish zarur. Aks holda, sarflanayotgan xarajatlar va ta'lim sifati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash qiyin kechadi.

I bob bo'yicha xulosa

Davlat byudjetidan oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish ijtimoiy-iqtisodiy modelga to'g'ri keladi – davlat o'z byudjetida mamlakat milliy daromadining sezilarli qismini to'plagan holda, keng rivojlangan oliy ta'lim muassasalari tarmog'ini ularning asosiy ehtiyojlarini qondiradigan darajada saqlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Maktablarga faqat ta'lim muassasasi sifatida emas, balki juda ko'p ijtimoiy muammolarni hal qiladigan markaz sifatida qarash maqsadga muvofiq bo'ladi. -Oliy ta'limni muassasalarida jinoyatchilikka, SPIDga va narkomaniyaga qarshi ko'rashish, ta'lim standartlari asosida va ta'lim xizmati sifatini oshirish maqsadida psixolog, logoped kabi shtatlarni hamda “ijtimoiy instruktorlar” kabineti tizimini joriy etish yaxshi natijalar beradi. Birinchi bob bo'yicha xulosa qilar ekanmiz, avvalambor “Ta'lim to'g'risida”gi qonunning 31-moddasiga muvofiq davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o'quv

yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

Yuqorida sanab o'tilgan o'zgaruvchi ko'rsatkichlarning moliyalashtirish formulasiga kiritilishi resurslarni barcha o'quvchilar o'rtasida teng taqsimlash imkonini beradi. Ammo resurslarni jon boshiga moliyalashtirish asosida taqsimlashning samaradorligini ta'minlash uchun ta'limning belgilangan darajasini ta'minlash, resurslar miqdori va narxidan kelib chiqqan holda ularning miqdoriy tahlilini olib borish zarur. Aks holda, sarflanayotgan xarajatlar va ta'lim sifati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash qiyin kechadi.

Har bir mamlakat ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari, byudjet tizimining xususiyatlari va ta'lim tizimini boshqarish tamoyillaridan kelib chiqib ta'lim soxasini moliyalashtirishning u yoki bu usullarini qo'llaydi. Shu bilan birga, aksariyat ta'lim tizimlarida ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning bir nechta keng qo'llaniladigan usullarini ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega):

- o'tgan davr ko'rsatkichlari asosida moliyalashtirish—bu usul tashkilot byudjetini o'tgan davr xarajatlari darajasida (inflyatsiyani hisobga olgan holda) mazkur muassasa moliyalashtirilayotgan tegishli byudjet imkoniyatlaridan kelib chiqib aniqlashni ko'zda tutadi;

- alohida shartnomalar asosida moliyalashtirish - xar bir ta'lim muassasasi belgilangan mezonlarga muvofiq zarur resurslarga bo'lgan o'z ehtiyojlarini asoslab berishi lozim. Ushbu resurslarga bergan buyurtmasi talablarga mos kelgandagina ega bo'ladi.

II BOB. MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

2.1. Oliy ta'lim muassasalri xarajatlarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili

O'zbekistonda ta'lim sohasiga ajratiladigan davlat xarajatlari darajasining yuqori ekanligi demografik vaziyat (mamlakat aholisining 60% dan ortig'ini bolalar va 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar tashkil etadi), Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilganidek, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tarmog'ining kengayishi, ta'lim sektorini mustahkamlash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yirik milliy dasturlarning amalga oshirilishi kabi omillar bilan bog'liqdir. Shuni qayd etib o'tish joizki, O'zbekiston aholisi ma'lumotlilik darajasi bo'yicha dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlari orasida munosib o'rin egallaydi: jahonda aholining ma'lumotlilik indeksi o'rtacha 0,77 ni tashkil etgani holda, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 99 ga teng.¹⁴

Umumiy o'rta (boshlang'ich, tugallanmagan o'rta, ixtisoslashtirilgan) va maktabdan tashqari ta'lim Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidadir. Xalq ta'limi muassasalari bo'yicha eng katta o'rinni umumta'lim maktablari, ikkinchi o'rinni kasb-hunar kollejlari egallaydi. Maktabgacha tarbiya muassasalari, bolalar musiqa maktablari, bolalar bilan ishlovchi maktabdan tashqari muassasalar xarajatlarning bir qismi aholi mablag'lari hisobidan ham qoplanadi, lekin ta'limni moliyalashtirishning asosiy manbai - davlat byudjeti ekanligini e'tirof etish lozim.

Bugungi kunda ta'lim tizimi moliyaviy resurslarning quyidagi manbalariga ega:


Davlatdan moliyalashtirish manbalari:

- davlat (respublika va mahalliy) byudjeti;
- davlat maqsadli fondlari.

¹⁴Ma'lumotlar «O'zbekiston Respublikasi aholisi turmush farovonligini oshirish strategiyasi» loyihasi materiallaridan keltirilgan

Nodavlat moliyalashtirish manbalari:

- tadbirkorlar va homiylarning moliyaviy yordamlari;
- jamoatchilik yordamlari;
- ota-onalarning (o'qitish uchun) to'lovlari;
- xorijiy kreditlar va grantlar;
- boshqalar.



4-rasm. Ta'limi tizimini moliyalashtirish manbalari.¹⁵

Ta'lim tizimi moliyaviy resurslarini boshqarish xalq ta'limi muassasalarining xo'jalik va moliyaviy mustaqilligining kengayishi sharoitida asosiy, ustivor ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda byudjet xarajatlarning o'rtacha 1/3 qismi ta'lim tizimini moliyalashtirishga yo'naltirilgan.


¹⁵ Nurmuxamedova B., Kabirova N. "Moliya", O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2012. 207b

Bundan tashqari, ta'limga yo'naltirilayotgan byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari (umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi) mablag'lari, qarz mablag'lar (davlat ta'lim tizimini rivojlantirish uchun sarflanadigan xorijiy kreditlarning qaytarilishini kafolatlaydi) va grantlar ham ta'lim tizimini moliyalashtirishning davlat manbalariga kiradi.

Oliy ta'lim muassasalarini saqlash uchun davlat byudjetidan mablag'lar smetali moliyalashtirish tamoyillari tartibi asosida ajratiladi.

Smeta asosida davlat byudjetidan moliyalashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mablag'larni sarflashda iqtisod qilish rejimiga amal qilish, xarajatlar minimumiga intilish;
- byudjet mablag'laridan maqsadli (ya'ni oldindan aniqlangan va kelishilgan maqsadlar uchun) foydalanish;
- ta'lim muassasalari moliya-xo'jalik faoliyati ustidan moliya organlarining muntazam nazoratini amalga oshirish.



5-rasm. Davlat byudjeti harajatlari¹⁶ (mlrd.so'm)

Yuqoridagi rasmda Davlat byudjeti harajatlari dinamikasi aks ettirilgan. Davlat byudjeti xarajatlarining salmog'i o'sib bo'lmoqda.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2016-2018 yillarda Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab- quvvatlash xarajatlarining salmog'i¹⁷

№	Ko'rsatkichlar	2016- yil	2017- yil		2018-yil	
		mlrd.so`m	mlrd. so`m	o'zgarish, % da	mlrd. so`m	o'zgarish, % da
I	Davlat maqsadli jamg'armalarsiz xarajatlar-jami	40911,30	49344,90	120,61	62170,00	125,99
1.	Ijtimoiy sohalar va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun xarajatlar - jami	22766,00	26708,70	117,32	34664,00	129,79
	shu jumladan:					
1.1	Maorif	13831,70	15977,70	115,52	19504,30	122,07
1.2	Sog`liqni saqlash	5811,60	7030,30	120,97	9562,00	136,01
1.3	Madaniyat va sport	460,60	750,20	162,87	1165,40	155,35
1.4	Fan	238,20	275,60	115,70	389,30	141,26
1.5	Ijtimoiy ta'minot	161,10	-	-	-	-
1.6	Oilalarga ijtimoiy nafaqalar. shu jumladan bolali oilalar	2043,20	2239,60	109,61	3150,80	140,69
1.7	Ijtimoiy sohaning boshqa xarajatlar	-	435,30	100,00	714,00	100,00
1.7	Qishloq joylarda yakka tartibdagi turar joy qurish Dasturini moliyalashtirish uchun kredit liniyalari	1335,50	214,00	120,61	370,00	172,90


Byudjet sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan ushbu sohadagi

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

muassasalar, jumladan, ta'lim muassasalari uchun byudjetdan tashqari qo'shimcha daromadlar olish hisobiga moliyalashtirish manbalarini kengaytirish ko'zda tutilgan.

Xususan, ushbu xarajatlar 2016 yilda 40911,0 milliard so'm, 2017 yilda esa 49344,0 milliard so'mga teng bo'ldi. 2018 yil uchun ushbu xarajatlar 62170,0 milliard so'm hajmiga teng bo'lgan.

Oliy ta'limi muassasalarini byudjetdan moliyalashtirish manbaiga bog'liq ravishda respublika va mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladi. Respublika byudjetidan oliy ta'lim, kasb-hunar va o'rta maxsus o'quv yurtlari, umumta'lim maktablari va respublika ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa ta'lim muassasalari moliyalashtirilsa, mahalliy byudjetdan bolalar maktabgacha muassasalari, umumta'lim maktablari mablag' bilan ta'minlanmoqda. Byudjetdan ta'lim tizimiga ajratilgan mablag'larning 11 foizi respublika byudjeti hisobiga, 89 foizi mahalliy byudjetlar hisobiga to'g'ri keladi. Shundan, maktabgacha tarbiya muassasalarining 99,8 foizi, boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktablarning 98,1 foizi, maktab-internatlarning 83,7 foizi, kasb-hunar kollejarining 94,1 foizi turli pog'onadagi mahalliy byudjetlardan moliyalashtirilgan. Keyingi yillarda ham ana shu tendentsiya saqlanib kelmoqda.



6-rasm. Ta'lim tizimidagi maorif xarajatlari¹⁸ (mlrd.so'm)

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining salmog'i yuqori bo'lmoqda. Xususan, ushbu xarajatlar 2016- yilda 22766,00 milliard so'm, 2017- yilda esa 26708,70 milliard so'mga teng bo'ldi. 2017-yilda 2016-yilga nisbatan o'zgarish 117,32 % ni tashkil etdi.

2018-yil uchun ushbu xarajatlar 34664,00 milliard so'm hajmida rejalashtirilgan va 2018-yilda 2017-yilga nisbatan o'zgarish 129,79 foizni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasining 2015-2018 yillardagi daromadlari ijrosini tahlil qilsak, ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki daromadlarning katta qismi O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining sog'liqni saqlash va markaziy investitsiyalar uchun alohida satr bilan ajratiladigan mablag'lari hisobidan keladi. Bu daromad manbai yillar davomida o'sib borgan va 2018- yil uchun 2099.6 mlrd.so'm qilib rejalashtirilgan. Bu ko'rsatkich 2018- yil uchun 70.6% miqdorni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasining 2015-2018 yillardagi xarajatlar ijrosini tahlil qilsak, jami xarajatlar 2016 yildan 2018 yilga qadar o'sib borish tendensiyasiga ega. Bu xarajatlar 2018 yilda 2972.2 mlrd.so'm qilib rejalashtirilgan. Shundan yangi Istedod jamg'armasi uchun ajratilgan xarajatlar qo'shitilgan bo'lib 50,0 mlrd.so'mga rejalashtirilgan. Jadval malumotlaridan korishimiz mumkinki eng katta xarajat Qurilish, rekonstruktsiya kapital ta'mirlash va ta'minot uchun sarflanadi. Bu esa ta'mirlashga katta e'tibor berilayotganidan darak beradi.


2015-2018-yillarda faoliyat olib borgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi daromadlar va xarajatlarida kuzatilgan o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki jamg'arma xarajatlari va daromadlari yildan- yilga ortib kelmoqda.

Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasining 2015-2018 yillardagi daromadlari dinamikasi¹⁹

№	Ko'rsatkichlar	2016 yil		2017 yil		2018 yil	
		Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan %	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan %	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan %
	Jami daromadlar	1433.9	100.0	1783.4	100.0	2972.7	100.0
1	Yil boshidagi qoldiq	11.8	0.8	10.7	0.6	10.7	0.4
2	O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining sog'liqni saqlash va markaziy investitsiyalar uchun alohida satr bilan ajratiladigan mablag'lar	553.3	38.6	818.1	45.9	2099.6	70.6
3	Fondga majburiy ajratmalar	854.8	59.6	940.6	52.7	848.4	28.5
4	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimiyatlarining mablag'lari hisobidagi tushumlar	14.0	1.0	14.0	0.8	14.0	0.5

2018- yil xarajatlar ortishining asosiy sabab Istedod jamg'armasi uchun ajratmalar va yangi maktablar qurish va rekonstruktsiya qilish uchun ko'proq pul mablag'lar ajratilganligi. Istedod jamg'armasi chet elga malaka oshirish uchun jonatilgan kadrlar uchun xarajat sarflaydi.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



7-rasm. 2015-2018 yillarda jamg'armaning daromadlar va xarajatlari dinamikasi²⁰

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari 2008 yilda 45,0 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ta'lim xarajatlari 31,6 foizni tashkil qilgan, buko'rsatkich 2012 yilga kelib ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari 58,0 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ta'lim xarajatlari 33,4 foizni, 2015 yilga kelib ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari 58,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ta'lim xarajatlari 34,4 foizni, 2016 yilga kelib ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari 58,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ta'lim xarajatlari 33,7 foizni, 2017 yilga kelib ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari 59,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ta'lim xarajatlari 34,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2018 yilga kelib ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari 58,9 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ta'lim xarajatlari 33,9 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Tahlili jarayonida shuni ko'rsatadiki, davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari o'sish tendensiyasiga ega.

Bugungi kundagi xalq ta'limi tizimiga bo'lgan e'tiborni, ushbu sohaga ajratilayotgan mablag'dan va moliyaviy statistik ko'rsakichlardan ham ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda xalq ta'limi tizimida band bo'lganlar va maktablar soni nuhim hisoblanadi.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

**2011-2018-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining
ta'lim sohasiga xarajatlari (foizda)²¹**

Ko'rsat- kichlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil
Davlat byudjeti xarajatlari	100	100	100	100	100	100	100	100
Ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari	59,5	58	58	59,4	58,7	58,1	59,2	58,9
Ta'lim xarajatlari	34,6	33,4	34	34,6	34,4	33,7	34,1	33,9

Quyidadagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan 2015-2017-yillarda ta'lim va ilm-fan sohalariga xarajatlari tarkibini ko'rib chiqamiz. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ta'lim soha xarajatlari 2015-yilda 12162,2 mlrd. so'm, ya'ni 34 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ilm-fan xarajatlari 216,7 mlrd. so'm, ya'ni 0,6 foizni, 2016-yilda ta'lim xarajati 13831,7 mlrd. so'm, ya'ni 34 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ilm-fan xarajatlari 238,2 mlrd. so'm, ya'ni 0,6 foizni, 2017-yilga kelib ta'lim xarajati 15977,7 mlrd.so'm, ya'ni 32 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ilm-fan xarajatlari 275,6 mlrd. so'm, ya'ni 0,6 foizni tashkil qilgan. Tahlil jarayonida shuni ko'rsatadiki Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ta'lim soha xarajatlari pasayish tendensiyasiga ega.

Quyidagi rasm ma'lumotlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida 2015-yilda ta'lim xarajatlari 34 foizni, 2016-yilda ta'lim xarajati 34 foizni, 2017-yilda esa ta'lim xarajatlari 32 foizni tashkil qilgan. Tahlil jarayonida shuni ko'rsatadiki, Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ta'limga qilinadigan xarajatlarning salmog'i o'tgan yillarga nisbatan kamaygan. Ilm-fan

²¹ www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi


xarajatlari o'zgarmas holda saqlanib qolgan.

4-jadval

2015-2017-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ta'lim va ilm-fan sohalariga xarajatlari(foizda)²²

Ko'rsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yil	
	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%
Davlat byudjeti xarajatlari	36257,3	100	40911,3	100	49344,9	100
Ta'lim xarajatlari	12162,2	34	13831,7	34	15977,7	32
Ilm-fan xarajatlari	216,7	0,6	238,2	0,6	275,6	0,6

Ta'lim muassasalari eng ko'p tarqalgan davlat muassasalari hisoblanadi. Ular qurish, mavjudlarni saqlash, moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash, kadrlar masalasini hal qilish kabilar tarixan davlat mablag'lari evaziga amalga oshirilib kelingan. Ta'lim tizimining joriy va kapital xarajatlarini moliyalashtirishda davlat byudjetining ahamiyati hali ham katta. Davlat byudjetining ijtimoiy-madaniy sohalarni saqlash xarajatlari tarkibida asosiy o'rinni xalq ta'limi xarajatlari egallaydi.



8-rasm Ta'lim xarajatlari dinamikasi²³

²² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. www.mf.uz

²³ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. www.mf.uz

2.2. Oliy ta'limi muassasalarini byudjetdan moliyalashtirish amaliyotining tahlili

O'zbekiston aholisining 60 foizdan ko'prog'ini yoshlar tashkil qiladi. Tabiiyki, ularni o'qitish, tarbiyalash, kasbga yo'naltirish va mutaxassis kadr qilib tayyorlash masalalari zamonning dolzarb masalasi bo'lmog'i zarur. Buning asosiy sababi shundaki, yoshlar qatlami o'zida yirik ilmiy va mehnat salohiyatini mujassam etadi.

O'zbekiston tarixida ilk marotaba 22-dekabr 2017-yilda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning parlamentga Murojaatnomasi taqdim etildi. Murojaatnomada barcha sohalar singari ijtimoiy soha, xususan ta'lim tizimida amalga oshirilgan ishlar xaqida ma'lumotlar keltirib o'tildi. Ijtimoiy sohani isloh qilish bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi ham bosqichma-bosqich ta'minlanmoqda. Joriy yilda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joylar qurish loyihasi amalga oshirila boshladi. Shahar va qishloqlarimizda jami 3,5 million kvadrat metrdan ziyod namunaviy uylar va ko'p qavatli uy-joylar barpo etildi. 12 ta umumta'lim maktabi yangidan barpo etildi, 320 tasi rekonstruksiya qilindi, 152 ta maktab kapital ta'mirlandi. 107 ta maktabgacha ta'lim muassasasi rekonstruksiya qilindi va qurildi, 195 ta bog'cha kapital ta'mirlandi. Maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o'rni va ahamiyatini e'tiborga olib, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi, 11 yillik ta'lim qayta tiklandi. Yangi tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari soni 81 taga, hududlardagi filiallar 15 taga, xorijiy universitetlar filiallari 7 taga yetdi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimi takomillashtirildi, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, uning tarkibida bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlar faoliyati tiklandi²⁴.

Tashkilot va muassasalar birgalikda mamlakatimizning ta'lim tizimini tashkil etib, davlat byudjetidan ta'lim uchun ajaratiladigan mablag'lar aynan yuqurida ta'kidlab o'tilgan sub'ektlarni faoliyatini tashkil etish maqsadida

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga murojaatnomasi 22.12.2017-yil.

ajratiladi. Quyida davlat byudjeti ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlari tarkibida eng yuqori o'rinni egallovchi ta'lim xarajatlari yo'naltiriladigan ta'lim tizimi tashkilot va muassasalari, shuningdek tarbiyalanuvchilari dinamikasini ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasida 2017/2018 o'quv yili boshida jami umumta'lim muassasalari soni 9718 tani tashkil etib, ulardan 6012 tasi (62%) qishloq joylarda, 3706 tasi (38%) shaharlarda joylashgan. 2017/2018 o'quv yilida mamlakatdagi umumta'lim muassasalarida jami 5271,3 ming nafar o'quvchilar ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 51 foizini o'g'il bolalar, 49 foizini esa qizlar tashkil etadi. Umumta'lim muassasalaridagi jami o'qituvchilar soni 419,8 ming nafarni tashkil etib, ulardan 54 foizi qishloq maktablarida, 46 foizi esa shahar maktablarida faoliyat yuritib kelmoqda. O'zbekistonda bitta o'qituvchiga o'rtacha 13 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. O'zbekistonda bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni qishloq joylarda o'rtacha 10,9 ga, shahar joylarda esa 14,5 ga teng bo'ldi.

Islohotlar amalga oshirilgan yillarda umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, 12 yillik majburiy ta'limga o'tish natijalarini har tomonlama tahlil qilish hozirgi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi bugungi kun talablariga javob bermasligini va tubdan isloh qilishga muhtoj ekanligini ko'rsatdi. Ushbu sohadagi mavjud muammolarni tizimli hal etish, aholi barcha qatlamlarining ehtiyojlarini hisobga olish va bandligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonda quyidagilar nazarda tutilgan: 2018/2019 o'quv yilidan boshlab majburiy umumiy o'rta ta'lim uzluksiz 11 yillik ta'lim negizida amalga oshiriladi, shuningdek, 2019/2020 o'quv yilidan boshlab kasb – hunar kollejlariga o'qishga qabul qilish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11 – sinf bitiruvchilari hisobidan, ixtiyoriylik asosida, tegishli mutaxassislikka (kasbga) ega bo'lish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo'lgan ta'lim muddatlarida amalga oshiriladi.

2017/2018 o'quv yili boshiga jami 1556 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil olayotgan 1163,2 ming nafar o'quvchilarga, 90,8 ming nafar pedagog xodimlar ta'lim bermoqda. Akademik litseylar soni 123 ta O'qituvchilar soni 8,0 ming kishi, kasb hunar kollejlari soni 1433 donani tashkil etib o'qituvchilar soni 82,8 mingkishi.

2017 yilning 1 noyabr holatiga O'zbekiston Respublikasida oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari 72 ta oliy ta'lim muassasasi va 19 ta filiallar mavjud bo'lib, ularning tarkibida 4 ta akademiya, 7 ta xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallari, 27 ta universitetlar va 4 ta oliy diniy ta'lim muassasa hamda filiallari faoliyat yuritmoqda. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarga asosan, 2017/2018 o'quv yili boshiga bakalavriat bosqichiga jami 80822 nafar, shu jumladan 18439 nafari davlat grantlari asosida, 62383 nafar yoshlar esa shartnoma asosida talabalikka qabul qilingan. 2017/2018 o'quv yili uchun magistraturaga jami 4857 nafar qabul qilingan talabalardan, 34,8 foizi (1690 nafar) davlat granti asosida, 65,2 foizi (3167 nafar) to'lov shartnoma asosida qabul qilindi. Talabalarning 27,1 foizi davlat grantlari asosida, 72,9 foizi shartnoma asosida ta'lim olmoqda. Quyida o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga xarajatlarni moliyalashtirish manbalarini ko'rib chiqamiz.

Doktorantlar tayyorlovchi muassasalar (katta ilmiy xodim izlanuvchilar institutlari) soni 2016 yilga kelib 128 tani tashkil etdi va 2000 yildagiga nisbatan 1,6 barobarga oshdi. 2016 yilda doktorantlarni tayyorlovchi muassasalarning 65 tasini ilmiy institutlar, 63 tasini oliy ta'lim muassasalari tashkil qildi. Ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlanmalari bilan shug'ullanadigan tashkilotlar soni 2016 yilda 2000 yilga nisbatan 19 taga ko'paydi va 437 tani tashkil etdi. Ular tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlari hajmi 2016 yilda 396 mlrd. so'mga yetdi va 2000 yilga nisbatan 37 barobarga oshdi.

**O‘z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik
ishlanmalarga xarajatlarni moliyalashtirish manbalari (2000-2016 yillar).²⁵**


	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2016 y.
O‘z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga xarajatlar, mln.so‘m	11210,5	36448,1	116121,7	428485,5
shu jumladan:				
jami davlat byudjeti mablag‘lari	4444,1	16307,8	70457,9	247220,2
byudjetdan tashqari fondlar mablag‘lar	166	2365,2	5824,6	18084,9
o‘z mablag‘lari	1594,1	6273,8	12409,8	95424,1
buyurtmachi mablag‘lari	4962,8	11289,4	24553,3	64188,9
xorijiy manbalar mablag‘lari	46,5	211,9	2876,1	3567,4

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti, mustaqil izlanuvchilik) doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi. So‘nggi o‘n yetti yil mobaynida respublikamizda ilmiy muassasalar tomonidan o‘z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba – konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirish manbasi tarkibida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

So‘nggi o‘n yetti yil mobaynida respublikamizda ilmiy muassasalar tomonidan o‘z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba – konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirish manbasi tarkibida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Xususan, 2000 yilda bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishga asosan buyurtmachi mablag‘lari (jami xarajatlarning 44,3 foizi) jalb qilingan bo‘lsa, so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda

²⁵ www.stat.uz Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari mustaqil asosida tayyorlandi.

ko‘proq davlat byudjeti mablag‘lari (57,7 foizi) va o‘z mablag‘laridan (22,3 foizi) foydalanilmoqda.



9-rasm. O‘z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga davlat byudjeti xarajatlari (mln.so‘m)²⁶.

Bundan tashqari ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda xorijiy manbaalar va byudjetdan tashqari fondlar mablag‘laridan foydalanish ham sezilarli ortgan. 2000 yilda asosan buyurtmachilar mablag‘lari hamda davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan (jami moliyalashtirishning 84 foizi) moliyalashtirilgan bo‘lsa, 2016 yilda davlat byudjeti mablag‘lari qatorida o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishning ham ulushi ortgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958 sonli Farmoniga binoan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimining sifati va samaradorligini tubdan oshirish, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini har tomonlama namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limning ikki pog‘onali shakli dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi “tayanch doktorantura” va dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha fan

²⁶www.stat.uz Statistika qo‘mitasi rasmiy sayti ma‘lumotlar asosida mustaqil tayyorlandi.

doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi “doktorantura” tizimini joriy qilindi.

Ijtimoiy madaniy sohalar iqtisodiyotning katta bir bo'lagi hisoblanadi, jamiyat va uning azolariga nomoddiy xususiyatdagi xizmat ko'rsatish vazifasini amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Fuqarolarning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqi asosiy qonunimiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlanadi. Ijtimoiy yordam tizimini huquqiy atrofda barpo etish va bu boradagi qonunlarning ijro etilishining moliyaviy ta'minlash iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoyalash masalasining ustuvorligi O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish, bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturining eng ustuvor yo'nalishi sifatida tan oligan.

Mamlakatimiz rivojlanishining hamda bozor munosabatlariga o'tishning besh tamoyilidan biri, axolini demagrafik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yurutish hisoblanadi. Shu sababli mahalliy budjetlardan aholining kam ta'minlangan qatlamlariga to'lanadigan ijtimoiy to'lovlar hajmi oshib boradi. Ijtimoiy soha xarajatlarining 80 foizi va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarining 100 foizi mahalliy budjetlardan amalga oshiriladi. Ijtimoiy soha xarajatlari tarkibida ta'lim xarajatlari salmog'i yuqori bo'lib, bunga asosiy sabab har kim bepul ta'lim olish huquqiga ekanligi va bu huquq davlat tomonidan kafolatlanishi belgilab berilgan holda ta'lim xarajatlari O'zbekiston Respublikasida Davlat budjetidan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim xarajatlarini byudjetdan moliyalashtirish jarayonlari so'ngi yillarda eng asosiy xarajat yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunga asosiy sabablardan aholining keng qatlami(60-70) foiz qismi ushbu sohada tahsil olayotganligi, yoshlar siyosatiga e'tibor, hamda ta'lim tizimi aholini ish bilan ta'minlashda ham o'z o'rniga ega ekanligidadir. Ta'lim xarajatlarini byudjetdan moliyalashtirish jarayoni byudjet daromadlarini shakllanishi bilan birgalikda kechib shakllanayotgan byudjet daromadlari o'z o'rnida byudjetdan amalga oshiriladigan xarajatlarni moliyalashtirish maqsadlaerida sarflanadi.

2016-2018 yillarda ta'lim xarajatlarining Navoiy viloyati Xatirchi tumanining mahalliy byudjet daromadlari dinamikasi²⁷ (ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	YILLAR					
	2016		2017		2018	
	miqdor	Foiz	Miqdor	Foiz	Miqdor	Foiz
Soliqlar hisobiga undirilgan daromadlar	18 215 292	30	21 908 532	36	14 194 426	18
Ijtimoiy soha uchun transfertlar	33 930 292	57	25 982 383	43	62 597 590	82
Shundan						
Xalq ta'limi xodimlari ish xaqqi va YaIT larga	32 157 600	53	25 982 383	43	44 652 748	58
Sog'liqni saqlash muassasalarining xodimlari ish xaqqi va YaIT larga	0	0	0	0	17 944 842	24
Yuqori byudjetdan o'tkazib beriladigan daromad	7 824 610	13	13 054 610	20	0	0
Daromadlar xammasi	59 970 195	100	60 945 525	100	76 792 016	100

Andijon viloyati Buloqboshi tuman byudjet daromadlari shakllanishida solikli daromadlarning o'zni yuqori hisoblanadi. 2016-yilda daromadlarning 30 foiz qismi mahalliy soliqlar va yig'imlar asosida shakllangan. Ijtimoiy soha uchun yuqori byudjetdan ajratilgan transfert(subvensiya) 57 foizni tashkil etgan bo'lsa, o'z o'z o'rnida 53 foiz qismi xalq ta'limi muassasalarining yagona ijtimoiy to'lovlari uchun ajratilgan. 2017-yilda ham byudjet jarayonlari shu holatda kechgan, ya'ni byudjetda 36 foiz solikli daromadlar, yuqori byudjetdan tuman byudjetiga transfertlar 43 foiz va bu to'liq Xalq ta'limi muassasalarining yagona ijtimoiy to'lovlari uchun ajratilgan. 2018-yilga kelib mahalliy byudjet daromadlari shakllanishida o'zgarishlar sodir bo'lgan.

²⁷ www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti asosida talaba tomonidan mustaqil tayyorlandi.

2016-2018 yillarda Navoiy viloyati Xatirchi tumanining ijtimoiy soha xarajatlari.²⁸

Ko'rsatkichlar	2016-yil		2017-yil		2018-yil	
	Miqdor	%	miqdor	%	Miqdor	%
Mahalliy byudjeti xarajatlari, jami	59 970 195	100	60 945 525	100	76 792 016	100
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvatlash xarajatlari, jami	53973176	90	55 886 985	91,7	69 463 358	87
Shundan						
ta'lim	36 881 670	61,5	38 349 690	62,9	46 877 847	61,0
Sog'liqni saqlash	16 730 635	27,9	17 153 138	28,1	20 673 488	26,9
madaniyat va ommaviy axborot vositalari	359 821	0,6	383 007	0,6	434 389	0,6
Sport	1 050	0,017	1 150	0,002	1 477 634	1,9

Xususan, soliqlar miqdori 2018-yilga nisbatan kamayib 14 mlrd 194 mln 496 ming so'm qilib rejalashtirilgan bo'lib, bunga sabab 2018-yildan soliqlarni tuman, viloyat va respublika byudjetiga taqsimlashning yangi tartibi joriy qilingani hisoblanadi. Shunga mos tarzda yuqori byudjetdan ijtimoiy transfertlar miqdori ortib 82 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. 2018-yildan , shuningdek sog'liqni saqlash tizimi muassasalari uchun hisoblanadigan YaIT yuqori byudjetdan ajratilgan transfertlar hisobiga qoplanadi. Reja asosida 2018-yilda Xalq ta'limi (Maktabgacha ta'lim bilan birgalikda) muassasalari uchun 44 mlrd 652 mln 748 ming so'm yagona ijtimoiy to'lov hisoblanib bu mablag'lar yuqori byudjetdan qondirilishi ko'zlangan. Ijtimoiy soha xarajatlari nafaqat respublika balki tumanlar byudjetlarining asosiy moliyalashtiriladigan soha hisoblanadi. Quyida Andijon

²⁸ www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti asosida talaba tomonidan mustaqil tayyorlandi.


viloyati Buloqboshi tumani mahaliy byudjetidan ijtimoiy soha uchun xarajatlar tarkibini ko'rib o'tamiz.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mahalliy byudjetning ijtimoiy xarajatlari kuchli ijtimoiy himoya talablarini qondirish maqsadida mahalliy byudjetda yuqori o'rinni egallagan. 2016-2017-2018(reja) yillarada mos ravishda 90-91-87 foizni tashkil etgan. 2018-yilda ijtimoiy maqsadlarda 69 mlrd 463 mln 358 ming so'm ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 46 877 847 ming so'm qismi ta'lim maqsadlarida, 46 877 847 ming so'm sog'liqni saqlash tizimi xarajatlari uchun, 434 389 ming so'm madaniyat va axborat sohasi uchun, 1 477 634 ming so'm sport uchun ajratilishi rejalashtirilgan. 2018-yilda ayniqsa sport uchun ajratiladigan mablag'lar xajmi ortgan. Ta'lim tizimi uchun byudjetdan 2016-yilda 36 881 670 ming so'm, 2017-yilda 38 349 690 ming so'm ajratilgan bo'lib, 2018-yilda 46 877 847 ming so'm ajratilishi rejalashtirilgan.

Ta'lim xarajatlari mahalliy byudjetning ijtimoiy xarajatlari tarkibida bo'ladi. Bu xarajatlar ma'lum qismi tuman byudjeti, viloyat byudjeti, va respublika byudjetidan (kapital qo'yilmalar) qoplanadi. Buning sabablaridan biri ta'lim muassasalarini to'rt guruh xarajatlaridan III guruh xarajatlar to'liq markazlashgan tartibda amalga oshirilishidadi Andijon viloyati Buloqboshi tumani ta'lim tizimi uchun yo'naltirilgan mablag'lar dinamikasini quyidagi diagramma orqali yoritib o'tamiz.

Yuqoridagi diagrammadan ta'lim xarajatlari 2016-yilda ijtimoiy xarajatlarning 68,3 foiz qismini, 2017-yilda ijtimoiy xarajatlarning 68,6 foiz qismini tashkil etib, 2018-yilda ijtimoiy xarajatlarning 67,5 foizini egallagan. Bu dinamik o'zgarishlarni quydagicha miqdor ko'rsatkichlar orqali ifodalashimiz mumkin.

Buloqboshi tuman ta'lim xarajatlari uchun 2016-2017 yillarda 36 881 670 ming so'm hamda 38 349 690 ming so'm miqdorda mablag'lar yuborilgan. Reja asosida 46 877 847 ming so'm 2018-yilda yo'naltirilgan. Yuqorida holatdan shuni xulosa qilish mumkinki, ta'lim xarajatlari yildan yilga ortib bormoqda.



10-rasm. 2016-2018-yillarda Xatirchi tuman ta'lim xarajatlari dinamikasi²⁹

Ta'lim tizimi sifatini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash, aholining savodxonligini yuksaltirish kabi maqsadlar ko'zlangani holda ta'lim xarajatlari yildan yilga ortib bormoqda. Keyingi qo'yiladigan asosiy masala esa anashu yo'naltirilayotgan mablag'lardan maqsadli vaqilona foydalanish, xarajatlarni manzilli moliyalashtirish va ta'lim tizimi rivojlanishiga erishish xisoblanadi.

II bob bo'yicha xulosa

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash, oliy ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartlari talablariga javob beradigan mebel, o'quv va laboratoriya asbob-uskunalari, sport anjomlari va kompyuter texnikasi bilan jihozlashni yaxshilash ishlari 2016-2018-yillar davomida o'zining huquqiy asosiga ega bo'ldi.

Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlarning samaradorligi, joylardagi ehtiyojlarning yanada to'liq e'tiborga olinishi nuqtai-nazaridan suv xo'jaligi xarajatlarini markazlashgan holda moliyalashtirish amaliyotini maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi.

²⁹ www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti asosida talaba tomonidan mustaqil tayyorlandi.

G‘aznachilik tizimini joriy etilishi davlat byudjeti mablag‘laridan samarali foydalanish maqsadida yurtimizda byudjet tizimi sohasida amalga oshirilgan eng katta iqtisodiy isloxlardan hisoblanadi.

Oliy ta‘lim muassasalari xarajatlarining tarkibini iqtisodiy mohiyatini ko‘rib chiqish, xar bir xarajat turi ulushini tahlil qilish nihoyatda muhimdir. Chunki aynan shu tahlil orqali biz oliy ta‘lim muassasalarining asosiy xarajat turlarini belgilashimiz va ularni optimallashtirish bo‘yicha takliflar kiritishimiz mumkin.

Navoiy viloyati Xatirchi tumani mahalliy byudjetining ta‘lim sohasiga qilingan xarajatlari ijrosini yuqorida keltirilgan jadval va rasmlardan ko‘rishimiz mumkin.

Davlat ta‘lim standartlariga mos kelgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarning hukumatlari o‘rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida har ikki tomonning ma‘lumot to‘g‘risidagi hujjatlari belgilangan tartibda o‘zaro tan olinishi mumkin.

III BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari

Respublikamizda ta'limni rivojlantirish va moliyalashtirishning yangi, samarali shakllarni egallash mablag' bilan ta'minlashning ilg'or usullaridan foydalanishni taqozo etadi. Bu sohada ilg'or va rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda kengaytirishga ehtiyoj sezilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etishning muhim asoslaridan biri - ta'lim tizimini takomillashtirish, uni islohotlarning ustivor yo'nalishlardan biri, deb qarash tamoyiliga kiritilganligi bejiz emas.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ta'limga sarflanayotgan mablag'ning eng ko'p qismi davlat byudjetidan ajratiladi, shuningdek, mintaqaviy va mahalliy byudjetlar mablag'lari, sanoat korxonalarining, ijtimoiy fondlarning jamg'armalari, jismoniy shaxslarning shaxsiy mablag'lari safarbar etiladi.

Ta'limni moliyalashtirish ham, boshqarish ham bir qancha omillarga bog'liqdir, xususan, davlatning tuzilishi, milliy ta'lim tizimi va uni boshqarish tizimi, tarixiy va madaniy an'analar, xalqning mentaliteti shular jumlasidandir. Boshqaruvning nomarkazlashtirilgan tizimlariga ega bo'lgan mamlakatlarda ta'limni moliyalashtirish har xil sxemalar bo'yicha amalga oshiriladi, ular mamlakatdagi ta'lim sohasini boshqarish tipiga hamma vaqt ham javob bermaydi va aralash ko'rinishda bo'ladi.

Masalan, boshlang'ich tayyorgarlik kurslariga xarajatlar samaraliligining baholash ko'rsatkichi kasb-hunarga o'qitish yoki malaka oshirish kurslarining ana shunday ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Bunday tahlil natijalari mablag'larning yuqoriroq samaraliligiga erishiladigan va kapital qo'yilmalardan yuqoriroq

daromad olinadigan dasturlar foydasiga qayta taqsimlash imkonini beradi.

Hozirgi sharoitda iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal qilish uchun ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omili - jami ishchi kuchining to'liq safarbar etilishi va faolligi ta'minlanishi zarur. Bunda millatning ma'naviy va madaniy rivojini, intellektual salohiyatini yuksaltirish omili sifatida qaralayotgan ta'limning ahamiyati beqiyos. Darhaqiqat, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Maqsadlarimizga erishish, yangi demokratik jamiyatni qurish, islohotlarning taqdiri qanday intellektual kuchlarga egaligimizga, yoshlarimiz qanday madaniy va professional saviyaga erishganligiga, qanday ideallarga e'tiqod qilishiga, ma'naviy jihatdan qanchalik boyishiga bog'liq. Shu bois aholining ma'lumot olish imkoniyatini oshirish, milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirish asosiy vazifalarimizdan biridir". Shuning uchun "ta'lim" - O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yo'nalish deb e'lon qilingan.

Ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi holatiga baho berishda mamlakatimiz statistikasida qo'llanilayotgan ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti davrida ta'lim tizimining milliy iqtisodiyotga ta'sirini uni yalpi ichki mahsulotni yaratishdagi hissasi asosida aniqlash maqsadga muvofiq. Ma'lumki, yalpi ichki mahsulot xarajatlar yoki daromadlar usulida hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda ta'lim tizimining milliy iqtisodiyotga ta'sirini (M_T) quyidagi ifoda yordamida hisoblash mumkin:

$$M_T = \frac{T_x}{YalM} \cdot 100\%$$

Bunda: T_x - bir yilda ta'limga sarflangan xarajatlar miqdori.

AQShdagi o'quv yurtlari o'qitish, tadqiq qilish va ijtimoiy, madaniy vazifalarni bajarishga qobillik bilan birga o'qishni davom ettirish yoki samarali faoliyat uchun tayyorgarlikni ta'minlaydi, shuningdek, insoniylik va mas'uliyat, qilmishlariga javobgarlik ruhida tarbiyalash imkoniyatini ham beradi. Bu hududiy ta'lim ijtimoiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch (inson taraqqiyotining muhim sharti va tarkibiy qismi)dan asta-sekin insonning asosiy maqsadlaridan biriga

aylandi. Chunki Qo'shma Shtatlarda AQSh Prezidenti Eyzenxauer 1958 yildayoq ta'kidlaganidek, "Hozirda ta'limni kengaytirish va uning imkoniyatlarini yaxshilash masalasidan muhimroq vazifa yo'q" deb qaraldi. Texnika va texnologiya taraqqiyoti, inson huquqlari sohasida demokratik tuzumga erishish, davlat institutlari rivojlanishi, xususiy tashabbus va ishbilarmonlik - bularning barchasi ta'lim tizimi negiziga aylanib bordi. Ijtimoiy taraqqiyot uchun boshlang'ich va umumiy o'rta ta'limning majburiyligi ham (AQShda qabul qilingan qonunlarga muvofiq 8 yoki 10 yil) muhim ahamiyat kasb etdi³⁰.

Qo'shma shtatlarda ta'lim tizimi tanlov imkoniyatlarini kengaytirish borasida bir qancha afzalliklar va kamchiliklarga ega. Uning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi: o'quv dasturlari va uslublarining turli- tumanligi; o'quv dasturlarining muntazam ravishda o'zgartirib turilishi; har bir shaxsning o'zi yashayotgan jamiyat ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos keladigan darajadagi barkamolligiga erishish; oliy o'quv yurtlariga qabul va mamlakat miqyosida mutaxassislar tayyorlash reja asosida olib borilmasligi talabalarga xohlagan kasb, mutaxassislik va faoliyat sohasini tanlash imkonini beradi. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotganlar har qanday holda ham talabalar safidan chiqarilmaydi, ular imtihonlarni bir necha marta qayta topshirish imkoniyatiga ega. Kamchiliklar esa, xususan, oliy o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish mamlakat miqyosida mutaxassislar tayyorlash reja asosida olib borilmasligi, bu kadrlar tarkibiga salbiy ta'sir ko'rsatishi (bu holat so'nggi yillarda ko'proq kuzatilmoqda) va ishsizlik darajasi o'sishiga olib kelishi, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy muammolar hal qilinishini qiyinlashtirayotgani borasida fikr yuritadigan bo'lsak, hozirgi vaqtda ta'lim tizimining muhim bosqichi - o'rta maktablarda o'quvchilarning katta qismi (giyohvandlik va alkogolizm tarqalishi, intizom pastligi va boshqa sabablarga ko'ra) o'qishni tashlab ketish (tahsil olishni boshlaganlarning 68,8 foizi o'rta maktabni tamomlaydi, xolos) hollari ko'p uchraydi.

AQSh ta'lim tizimining uzoq sog'lom hayot kechirish nuqtai nazaridan afzalliklari quyidagilardan iborat: quyi o'rta maktablar - oraliq xususiyatga ega

³⁰ Shu va keying o'rinlarda AQSh ta'lim tizimini to'g'risidagi ma'lumotlar *blogs.voanews.com* saytidan keltirildi.

o'quv muassasalarining mavjudligi. Bu, o'quv-tarbiyaviy ishlar mazmunini o'smirlik davridagi rivojlanish xususiyatlariga moslashtirish imkoniyatini beradi.

Yana bir e'tiborli tomoni - bu hududda bolalar bog'chalari dasturlariga ham, o'rta maktablarning bitiruvchi sinflari o'quv dasturlariga ham salomatlik to'g'risidagi umumiy kurs kiritilgan. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, ta'lim darajasining oshishi umr ko'rish muddati uzayishi bilan ijobiy bog'liqdir.

AQSh ta'lim tizimi asosiy imkoniyatlarga teng egalik tamoyiliga asoslangan. So'nggi o'n yillikda erkaklar va ayollarning ta'lim olishdagi tengligi borasida katta ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Hatto ta'lim oluvchilar o'rtasida ayollar ulushi (56%) va o'qishga yalpi jalb qilinganlar tarkibidagi salmog'i oshishi (ayollar - 98%, erkaklar - 93%) kuzatilmoqda. Ammo ta'lim sohasida hamon iqtisodiy va milliy muammolar mavjud.

Sanoatlashgan ko'pgina mamlakatlarda, jumladan, Angliyada maktab o'quvchilari uchun o'qish me'yori kuniga 8 soat va bir yilda 220 kun. AQShda esa bu jarayon kuniga 6 soatni, yiliga esa 180 kunni tashkil etadi. AQSh o'quv yurtlarining ko'pchiligida ovqat tayyorlash va avtomobilni haydashga o'rgatish vaqti diplom olishda matematika, ingliz tili, kimyo, Vatan tarixi yoki biologiya fanlarini o'rganish vaqti qatorida hisobga olinadi. Ko'pgina maktablarda o'quvchilar intizomga o'rgatilmagan va muntazam o'qish tajribasiga ega emas. O'qituvchilarni tayyorlash dasturlari har bir fan bo'yicha o'qitiladigan o'qitish uslubiyati kurslari bilan o'ta yuklatilgan. O'qituvchilar tayyorlovchi 1350 o'quv yurti faoliyati tahlili natijalari ko'rsatishicha, bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchisi o'qish vaqtining 41% ini umumta'lim kurslarini o'rganishga sarflaydi, bu esa, ularning maxsus bilimlarni egallash imkoniyatlarini ancha kamaytiradi. 12 yil dars bergan o'qituvchining yillik ish haqi 17000 dollarni tashkil etadi. Shu bois, ko'pgina o'qituvchilar qo'shimcha ishlashga majbur. Ular amalda darsliklarni tanlash kabi muhim masalaga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlariga ega emaslar. O'qituvchilar soni haddan tashqari ko'p, degan fikr keng tarqalishiga qaramay, ma'lum fanlar: matematika, tabiiy fanlar va chet tillari bo'yicha o'qituvchilar yetishmaydi, iqtidorli o'quvchi va talabalar, mayda millat vakillari va nogironlarni

o'qitadigan mutaxassislar ham yetishmaydi.

Milliy Komissiya, yuqoridagilardan kelib chiqib, o'rta maktablar uchun bitiruv talablarini kuchaytirishni taklif etadi. Bu jarayonda barcha o'quvchilar besh asosiy kursni: ingliz tilini - 4 yil; matematikani - 3 yil; tabiiy fanlari - 3 yil; ijtimoiy fanlarni - 3 yil; kompyuter kurslarini - 1,5 yil o'rganishlari kerak³¹.
Qo'shimcha ravishda kollejlarda uchun 2 yil chet tilini o'qitish qat'iy tavsiya qilinadi.

Baholash akademik o'zlashtirishda shunday ko'rsatkich bo'lishi kerakki, unga asosan o'quvchining bundan keyingi o'qishga tayyorligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin bo'lsin. Bu jarayonda:

- 4 yillik kollej va universitetlar qabul qilinuvchilarga talablarni oshirishlari va bu to'g'rida bo'lg'usi talabalarga axborot berib turishlari;
- o'quvchilarning standartlashtirilgan bilim testlari asosiy bosqichlarda, ayniqsa, o'rta maktabdan kollej yoki ishga o'tishda qo'lanilishi;
- darsliklar, boshqa o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaxshilanishi va yangilanishi;
- maktab o'quvchilariga hozirgiga nisbatan ko'proq hajmda uy vazifalari berib borish;
- samarali o'qish, kasb mahoratini oshirish va vaqtdan unumli foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar boshlang'ich sinflardan tortib maktabni bitirgunga qadar berib borilishi;
- 7 soatlik maktab kuni va 200-220 kunlik o'qish yilini joriy qilish;
- rivojlanmagan, qoloq hamda iqtidorli o'quvchilarga qo'shimcha vaqt ajratish;
- vaqt behuda ketishini kamaytirish maqsadida darslarga qatnashmaydigan va kechikib keladigan talabalarga nisbatan jazolash choralaridan foydalanish;
- o'quvchilar guruhlarini shakllantirish, bosqichdan bosqichga o'tkazish va o'qishni tugatish siyosatida qat'iy yosh mezonlariga nisbatan ko'proq

³¹ Internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

o'quvchilarning akademik rivojlanishiga tayanmoq;

- o'qituvchi bo'lishga tayyorlanayotgan shaxslar yuqori ta'lim standartlari talablariga javob berishlari, o'qitish qobiliyatlariga ega bo'lishlari va maktab fanlarini yaxshi bilishlari;

- o'qituvchilar ish haqini shunday o'zgartirish kerakki, u ish haqining bozor darajasiga muvofiq kelishiga va zamonga mos, malakali o'qituvchilarni rag'batlantirishiga erishish imkonini berishi;

- maktab rahbariyati o'qituvchilarga nisbatan 11 oylik kontraktni joriy qilishi;

- o'qituvchilar yetishmasligi muammosini hal qilish maqsadida boshqa sohadagi mutaxassislarni jalb qilish;

- pedagogika sohasiga iqtidorli talabalarni jalb qilish uchun qo'shimcha rag'batlar, masalan, grantlar va kreditlardan foydalanish;

- yuqori sinf o'qituvchilarini tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va stajyorlar ustidan nazoratni yo'lga qo'yish zarur.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, talim tizimi mamlakat geosiyosatining muhim bo'g'ini xisoblanadi. "Dunyoning katta qismi o'zining intelktual kapitaliga tayanadi. Xukumat ta'lim va aqliy qobiliyatning muhimligiga ishongan holda bu sohalarga kiritilayotgan innovatsiyalarni qo'llab quvvatlashi dardkor. Xususan, oliy ta'lim tizimi muhim geosiyosat sifatida tan olingan muhim, qimmatli ilmiy izlanishlarni, shuningdek madaniy va zamonaviy tajribalarni taqdim etib beradi. Oliy ta'lim uchun davlat va xususiy mablag'lar hisobiga kiritilayotgan investitsiyalar Yevro Ittifoqda xalqaro iqtisodiy inqiroz davrlarida ham o'zining o'sish tendensiyalarini saqlab qoldi. Bu holat Yevro Ittifoqning barcha mamlakatlari tomonidan ijobiy qabul qilindi. Bu vaziyatda ta'lim muassasalari ta'lim dasturlari, ta'lim kontingenti va avvalgi ta'lim berish sifatlarini rivojlantirish uchun rag'batlantirishlar qabul qilishi kerak. Oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligini, boshqaruv va hamda to'lovga qobiliyatligining rivojlanishi ularga ta'limni har bir talaba uchun erkin bo'lishi imkoniyatlarini yaratib beradi. Universitetlar – korporativ tashqi hamkorlar bu hamkorlik aloqalari

muassasalar uchun ta'limni moliyalashtiruvchi korporatsiya va biznes vakillari bilan aloqalarni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratib beradi.

Yevropa Ittifoqining o'n ikkitamamlakatida ta'limni davlat budjetidan moliyalashtirish davlat va ta'lim muassasalari o'rtasida tuzilgan "anglashuv shartnomalari" orqali qisman yoki to'liq amalga oshiriladi. Davlat budjeti mablag'lari ushbu oliy ta'lim muassasalari uchun strategik maqsadlarni belgilab berish tamoyillariga asoslanadi. "Anglashuv shartnomalari" oldindan belgilab olingan maqsadlarga erishish uchun mo'ljallangan vositalarni ifodalab, hukumat organlari uchun strategik institutsional siyosatni yo'lga qo'yishda kuchli mexanizm vazifasini o'taydi"³².


3.2. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalaridan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari

Xalqaro mehnat bozorida kadrlarga bo'lgan talab mamlakat muassasalaridan jahon standartlariga javob beruvchi mutaxassis kadrlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Buning uchun ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning bilim olishlari va ta'lim beruvchilarning o'z bilimlarini yanada oshirishlari hamda ilmiy izlanishlarni olib borishlari uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash zarur hisoblanadi. Bu esa katta mablag' talab qiladi. Shu boisdan ham ta'lim tizimini samarali moliyalashtirish manbalarini ishlab chiqish va amaliyotiga joriy qilish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bu muammolarni hal etish mamlakat yuqori darajada samara beruvchi ta'lim tizimini hamda uni moliyalashtirishning samarali usullarini yanada takomillashtirishni talab etadi. Bunda bizga ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar tajribasi ma'lum darajada yordam berishi mumkin

Umuman olganda jahonning rivojlangan mamlakatlar ta'limni moliyalashtirishning hajmi va usullari bir qancha omillarga bog'liqdir. Ularning asosiylari 6-rasmda keltirilgan.


³² www.scopus.com "Financing higher education in Europe: issue and challenges" Maria Lung, Ioan Moldavan "Social and behavioral sciences" 2012.



11-rasm. Ayrim mamlakatlarda oliy ta'lim tizimida har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalalar soni.³³

Ta'lim tizimini moliyalashtirishning milliy modeli shu omillarni inobatga olgan holda shakllantiriladi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'limning uchta asosiy modelini ajratib ko'rsatish mumkin. Buni quyidagi 7-rasmda ko'rish mumkin. Osiyo ta'lim modeli ta'limni moliyalashtirishda davlatdan tashqari xususiy biznes ham alohida o'ringa eta. Bu modelda ta'limni moliyalashtirishda mahalliy manbalar milliy manbalarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etadi.




12-rasm. Jahonning rivojlangan mamlakatlarda ta'limni moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillar³⁴

³³ www.stat.uz Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy sayti

Boshlang'ich va o'rta ta'lim asosan bepul, oliy ta'lim esa pullidir. Oliy ta'limda talabalarga grantlar va kreditlar hisobidan ta'lim xizmatlari uchun pul to'lash bo'yicha yordam beradigan ko'p tarmokli tizim mavjud.

Masalan, Yaponiya ta'lim tizimi mamlakat umumbyudjeti uchun nisbatan arzon tushmokda. Yaponiya hukumatining ta'limga qiladigan sarfi yalpi milliy mahsulotning 5,5-6%ini tashkil etadi, AQShda bu ko'rsatkich 7,1%ni, Buyuk Britaniyada esa 7,7%ni tashkil etadi. Yaponiyada oliy ta'lim davlat va xususiy ta'lim muassasalariga tayanadi.³⁵ Davlat universitetlari, asosan, tabiiy-ilmiy, muxandislik fanlari bo'yicha mutaxassislar, nodavlat universitetlari esa gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi.



13-rasm. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'limning asosiy modellari³⁶

Bundan ko'rinadiki, davlat moliyalashtirish tizimi ko'p mablag' talab etadigan ixtisosliklar bilan bogliq. Ma'lumki, zamonaviy muxandisni tayyorlash, aytaylik, huquqshunos yoki iqtisodchini tayyorlashga ko'ra qimmatga tushadi.

Ta'lim standartlari shunday belgilanganki, xususiy ta'lim muassasasida xarajatlar minimal darajaga keladi. Bu ta'lim uchun haqni pasaytiradi, nodavlat oliy ta'limiga bo'lgan talabni oshiradi. Natijada nodavlat universitetlarining soni

³⁴ Saidov M.X. Oliy ta'lim tazimida moliyaviy boshqaruv. — T.: "Tafakkur- Bo'stoni", 2011. — 432 b

³⁵ Sobarzo, H. Tax effort and tax potential of state governments in Mexico: A representative tax system. / H. Sobarzo //Helen Kellogg Institute for International Studies.—Working Paper № 315. — 2004. — 31 p. www.scopus.com

³⁶ Saidov M.X. Oliy ta'lim tazimida moliyaviy boshqaruv. — T.: "Tafakkur- Bo'stoni", 2011. -432 b

ko'payadi. Bunga dotatsiya siyosati, qimmat tushmaydigan ixtisoslikka o'qish uchun litsenziya berish va o'quuvchi malakasiga talab ancha past ekanligi ko'maklashadi. Mazkur holat ish haqni tejash, xususiyl universitetlarda bitta o'qutuvchiga to'g'ri keladigan talabalar miqdori ko'p bo'lishiga imkon beradi.

Yevropa ta'lim modeli. Bu modelda barcha darajada bilim olish markazlashtirilgan bo'lib, asosan davlat hisobidan bepul o'qitiladi. Ushbu modelda ular bilimni boshlang'ich maktabdan boshlab baholash mezonlari yuqori hisoblanadi va o'quvchilar ushbu mezonlar asosida sinfdan-sinfga ko'chiriladi. Yevropada universitetlar mustaqilligi AQShdagi oliy ta'lim muassasalariga nisbatan kamroq. O'quv yurtlarini boshqarishda akademiklarning roli katta.

O'qituvchilar malakasini oshirish bugungi kunda bilimga asoslangan jamiyatda ta'lim sifatini saqlab qolish uchun muhim shartga aylandi. Ruminiya ta'lim tizimining eng asosiy maqsadlaridan biri, o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarining yuqori sifatiga, ularning malakasini oshirish va muvaffaqiyatli amaliyotni osonlashtirish uchun yangi o'quv rejalarini qo'llashdir. O'qituvchilarni o'qitishni takomillashtirish maktabda o'qitish va o'qitishni takomillashtirishga yordam beradi, bu o'z navbatida milliy darajada ta'lim sifatini yaxshilash imkonini beradi³⁷.

III bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib, mamlakatimizda ham huddi Yaponiyadagi kabi katta mablag' talab qiluvchi oliy o'quv yurtlarigina davlat ixtiyorida xolos va nisbatan kamrog' mablag' talab qiluvchi OTMLar esa xususiyl sektorga taqsimlansa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki ta'limni xususiylashtirish bu sohaga qo'shimcha mablag' jalb etishga ko'maklashadi. Qolaversa, xususiyl OTMLarini turli yo'llar bilan rag'batlantirish zarur, masalan, har xil soliq imtiyozlari berish hamda litsenziya olishni yanada optimal variantlarigi qo'llash lozim. Bundan tashqari, milliy ta'lim tizimimizda ham huddi Germaniya ta'lim tizimidagi kabi "dual prinsip" usulini yanada chuqurroq joriy qilish, ya'ni o'quv jarayonini amaliyot

³⁷ Masari Gianina-Ana "Kindergarten Teachers" Perceptions on in-service Training and Impact on Classroom Practice" 15.04.2013, Volume 76, Pages 481-485. www.scopus.com

bilan birgalikda olib borish innovatsion shakllarini qo'llash lozim. Natijada OTMni bitirgan kadrlar ishlab chiqarish muammolarini yechishda ustuvorlikka erishadi.

Rivojlangan chet el mamlakatlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim tizimi va uni moliyalashtirish usullarini o'rganib, xulosa qilish mumkinki, bu modellarning ayrim samarali jihatlarini mamlakatimiz ta'lim tizimiga joriy qilish dolzarb masalalardan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim tizimini isloh qilish sharoitida xalq ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirishni o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi.

Oliy ta'lim har bir jamiyatning ajralmas qismi, madaniyati va rivojlanish jaryonini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichidir. Har bir mamlakat istiqbolli rejalar tuzar ekan, avvalo, ta'limga e'tiborni kuchaytiradi.

Ta'limga ajratilgan mablag'lar xarajatlarda o'z ifodasini topadi. Ta'lim xarajatlari deganda, Oliy ta'limi vazirligi tasarrufidagi barcha oliy ta'lim muassasalarining ta'minoti, rahbarligi, inspeksiyasi va yordam ko'rsatuvchi tizimlar uchun sarflanadigan, shuningdek, belgilangan tartibda oliy ta'lim muassasalari xodimlarining ishsiz, rasmiy maqomini olganlari uchun sarflanadigan xarajatlar majmui tushuniladi.

Oliy ta'limi muassasalari xarajatlarini samarali amalga oshirishni tashkil qilish birinchi navbatda, rejalashtirilgan ob'ektlari to'liq qamrab olinishi va hisoblanishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarining mutlaq va nisbiy darajalariga bog'liq.

Oliy ta'limi muassasalarida xarajatlarning samaradorligi, joylardagi ehtiyojlarning yanada to'liq e'tiborga olinishi nuqtai-nazaridan oliy ta'lim muassasalari xarajatlarining tarkibini iqtisodiy mohiyatini ko'rib chiqish, xar bir xarajat turi ulushini tahlil qilish nihoyatda muhimdir

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ta'limni rivojlantirish va uni moliyalashtirishda davlat yuqori ulushga ega. Biroq, mazkur davlatlarda nodavlat ta'lim tizimi ham yaxshi rivojlangan. Fikrimizcha, ushbu tajribani amalda qo'llash, ya'ni, bu kabi muassasalarni mamlakatimizda yanada kengroq tashkil qilish o'rinlidir. Chunki, mazkur tadbirning qo'llanilishi ta'lim sifati va moliyaviy ahvolni yaxshilash borasida samarali vosita bo'la oladi.

Davlat byudjetidan oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish islohotlarga bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy modelga to'g'ri keladi – davlat o'z byudjetida mamlakat milliy daromadining sezilarli qismini to'plagan holda, keng rivojlangan ta'lim

muassasalari tarmog'ini ularning asosiy ehtiyojlarini qondiradigan darajada saqlash imkoniyatiga ega bo'ldi

Hukumat tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar tufayli, ta'lim sohasi sarf-xarajatlar ko'lamini, nominal va real qiymati keyingi yillar davomida ko'paya boshladi. Hukumat o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarayotgani ta'lim sohasiga investisiya sarflash darajasi yuqori ekanligidan dalolat bermoqda.

Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Oliy ta'lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirishimiz zarur. O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlari bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish o'tgan davrda 9-10 foiz darajasida bo'lib kelayotgan edi. So'nggi ikki yilda ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli, biz bu raqamni 15 foizdan oshirishga erishdik. Lekin bu hali etarli emas. Chunki dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasiga qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich ularda 60-70 foizni tashkil etadi. Shuning uchun 2019 yilda mamlakatimizda bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 20 foizga etkazish va kelgusi yillarda oshirib borish – muhim vazifamizdir. Oliy o'quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta'lim maskanlari sonini ko'paytirib, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish lozim. Yoshlarimizga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyatini berishimiz, o'ylaymanki, ularning ta'lim olish huquqlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalariga real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimini joriy etish kerak. Bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga xorijda o'qishni davom ettirish imkoniyatlari yanada kengaytiriladi. Chunki jamiyatimizda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi."³⁸

Oliy ta'limi muassasalarini samarali moliyalashtirilishini amalga oshirish uchun quyidagilarga qat'iy rioya qilish maqsadga muvofiq:

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 13-bet, Toshkent, 2018 –yil 28-dekabr.

a) oliy ta'lim tizimini mablag' bilan ta'minlash hamda xarajatlarini amalga oshirishda tizimning byudjetdan tashqari maxsus hisob raqamlariga jalb qilinadigan boshqa (pulli xizmatlar) tushumlarni ko'paytirish modelidan foydalanish va uni kengaytirish;

b) homiylik tomonidan oqilona me'yorlar asosida ulushli moliyaviy yordam ajratish tartiblariga asoslangan holda, ularga soliq imtiyozlari berishni kengroq joriy qilish;

v) barcha ta'lim bosqichlari uchun byudjet mablag'larini nafaqat bir o'quvchiga nisbatan, balki, aholi jon boshiga qarab ajratish prinsipiga va boshqalar.

Shuningdek, "Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish – eng muhim masalalardan biridir. Har bir ishlab chiqarish sohasida tarmoq ilmiy-tadqiqot muassasalari, konstruktorlik byurolari, tajriba-ishlab chiqarish va innovatsion markazlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Biz mamlakatimizda investitsiyalarni faqatgina iqtisodiyot tarmoqlariga emas, balki ilmiy ishlanmalar "nou-xau"lar sohasiga ham keng jalb qilishimiz kerak."³⁹

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, oliy ta'limi muassasalarini moliyalashtirish tizimining strategik yo'nalishlari quyidagicha amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

1. Muammolarni muhokama qilishda siyosiy jarayonlarni yaratish va tizimni takomillashtirishda aniq sohalar bo'yicha loyihalar ishlab chiqish lozim.

2. Oliy ta'limning barcha darajalarida faoliyat ko'rsatadigan menejerlarni tayyorlash bo'yicha yangi dasturlarni yaratish lozim.

3. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimida islohotlarni amalga oshirish va loyihalar potensialidan foydalanishda ta'limni moliyalashtirishga taaluqli xalqaro va donor loyihalarini to'g'ri muvofiqlashtirish lozim.

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 14-bet, Toshkent, 2018 –yil 28-dekabr.

4. Iqtisod qilingan mablag'larni boshqarishda imkoniyat yaratish, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy resurlarni boshqarish masalalarida yanada ko'proq vakolatlarni berish lozom.

5. Oliy ta'lim muassasalari ma'muriyatini talabalar va ota-onalar oldida hisobot berishlarni ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'lim jarayonining barcha qatnashchilari-mahalliy davlat boshqaruv organlari, muassasa rahbarlari, unda ishlovchilar, ota-onalar va talabalar uchun Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar miqdori bo'yicha ma'lumotlarning ochiq-oydinligi ta'minlanadi.

6. Oliy talim muassasalarini o'zini-o'zi mustaqil moliyalashtirish tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

7. Oliy talim muassasalari professor-oqiyuvchilari va talabalari tomonidan amalga oshirilgan muvafaqqiyat qozongan yangi loyihalar, ishlanmalar, potentlar, innovatsion ishlanma va loyihalarni moliyavi rag'batlantirishni takomillashtirish;

8. Rivojlanga mamlakatlarning oliy ta'limi muassasalari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish;

9. Oliy ta'limi muassasalari faoliyatini rivojlantirishni moliyalashtiri maqsadida sohaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda qo'shimcha mablag'larni jalb qilish, foydalanish va albatta uning istiqbolini to'g'ri belgilash byudjet moliyaviy resurslardan samarali foydalanish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017y. -40b.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: iy nashr-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2008 y. -692 B
3. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi". T.: "O'zbekiston" 2013 uil 26 dekabr. 2014 yil 1 yanvardan kuchga kirgan.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni,-T.; «O'zbekiston». 1997 yil 28 avgust.
5. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2699-sonli Qarori 2016 yil 27 dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2455-sonli Qarori 2015 yil 22 dekabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2270-sonli Qarori 2014 yil 4 dekabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2099-sonli Qarori 2013 yil 25 dekabr.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1887-sonli Qarori 2012 yil 25 dekabr.

11. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabdagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zR-343-sonli Qonuni.

12. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 24 apreldagi Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash" byudjetdan tashqari jamg'armani tashkil etish to'g'risida PQ-1432-sonli qarori.

14. 2017 yil 30 sentyabrda Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.

15. 2017 yil 5 iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni.

16. "O'zbekiston Respublikasining 2011-2018-yillardagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi Prezident Qarorlari.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida» gi farmoni, 2007 yil 26 fevral.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

18. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

19. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

20. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

21. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

22. Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ro'zasi: Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. www.uz.gov

3. Darslik va o'quv adabiyotlari

23. Malikov T.S. Moliya: O'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.: “Iqtisod-moliya”, nashriyoti, 2018 y. – 268 b

24. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. Moliyaviy tizim: Zamonaviy talqin: o'quv uslubiy qo'llanma. - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2016, - 116 b. Qosimova. G Ijtimoiy soha: boshqarish va moliyalashtirish. Monografiya. Toshkent.: 2015. 173 bet.

25. Azizova I.A. Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish. O'quv qo'llanma – Toshkent, 2010. – 152 b.

26. Srojiddinova Z.X. Bydjetlararo munosabalar. O'quv qo'llanma.–T.: «infoCOM.O'Z», 2010, 156 b.

27. Malikov T.S. Byudjet daromadlari va xarajatlari/ T.S. Malikov, N.X. Xaydarov. - Tashkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. - 245 s
28. Malikov T.S. Davlat byudjeti/ T.S. Malikov, N.X. Xaydarov. - Tashkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. - 84 s
29. Malikov T., Xaydarov N. Byudjet (tizimi, to'zilmesi, jarayoni). O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", TMI-2008. 98 bet
30. Malikov T., Vahobov D., Moliya: larda. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010, 660 b.
31. Malikov T., Jalilov P., Byudjet-soliq siyosati. Mongrafiya. T.: Akademnashr, 2011. 472 b.
32. Hamdamov Sh. K., Tursunov J. P. "Mahalliy byudjet" o'quv-uslubiy majmua. T:-2014y. b-455
33. Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi. //O'quv qo'llanma. -T.: "Iqtisod-moliya". 2005. 17-bet
34. Brehm, S. Fiscal Incentives, public spending, and productivity – countylevel evidence from a Chinese province/ S. Brehm // World Development.– Vol. 46.– 2013.–P. 92–103.
35. Gaspar, V., Jaramillo, L., & Wingender, M. P. (2016). Tax Capacity and Growth: Is there a Tipping Point?. International Monetary Fund.
36. Gupta, M. S. Governance, corruption, and economic performance. / M. S. Gupta, G. T. Abed.// International Monetary Fund.– 2017.– 564 p.

4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)

37. Kasimova G. //Ijtimoiy soha xarajatlarini byudjetdan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.// Biznes-ekspert jurnali, 2017-yil 2-son. -B. 35-37.
38. Odilov F. //Ijtimoiy soha xarajatlarini byudjetdan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.// Biznes-ekspert jurnali, 2017-yil 4-son. -B. 3-5.
39. O'zbekiston iqtisodiyoti.Axborot-tahliliy to'plam. 2017-yil yanvar-dekabr.

40. Mattos, E. Flypaper effect revisited: evidence for tax collection efficiency in Brazilian municipalities/ E. Mattos, F. Rocha, P. Arvate //Estudos Econômicos (São Paulo). – 2011. – T. 41. – №. 2. – P. 239-267.

41. Pessino, C., & Fenochietto, R. (2010). Determining countries' tax effort.

42. Sobarzo, H. Tax effort and tax potential of state governments in Mexico: A representative tax system. / H. Sobarzo //Helen Kellogg Institute for International Studies.–Working Paper № 315. – 2004. – 31 p.

43. Masari Gianina-Ana “Kindergarten Teachers” Perceptions on in-service Training and Impact on Classroom Practice” 15.04.2013, Volume 76, Pages 481-485.

5. Internet saytlari

www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti;

www.kun.uz – Xabarlar rasmiy sayti;

www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti;

www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi rasmiy sayti;

<http://www.uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi rasmiy sayti;

www.scopus.com – Xorijiy davriy nashrlarning rasmiy sayti.